

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI MINISTRILIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TARIX FAKUL`TETI

TARIX KAFEDRASI

4^V KURS BAKALAVR TARIX TA`LIM YO`NALISHI TALABASI

SHUKURULLAEVA GULMIRA MAKSUDOVNA

O`ZBEKISTONNING MUSTAQILLIK DAVRIDA DAVLAT

HOKIMIYATI STRUKTURASIDAGI O`ZGARISHLAR

MALAKAVIY BITIRUV

IShI

Ilmiy rahbar:

Tarix fanlar doktori,

dotsent **Ya.A.Abdullaeva**

Nukus-2014

Bitiruvchi talaba Shukurullaeva Gulmira Maksudovnaning «O`zbekistonning mustaqillik davrida davlat hokimiyati strukturasidagi o`zgarishlar» mavzusidagi bakalavr malakaviy bitiruv ishi Tarix kafedrasining 2014 yil «____» _____ kungi _____-sonli bayonnomasi asosida davlat attestatsiya komissiyasiga himoyaga yuborish tavsiya etildi.

Tarix kafedrası mudiri:

A.Saribaev

Bitiruvchi talaba Shukurullaeva Gulmira Maksudovnaning «O`zbekistonning mustaqillik davrida davlat hokimiyati strukturasidagi o`zgarishlar» mavzusidagi bakalavr malakaviy bitiruv ishi 2014 yil «____» _____ kungi institut rektorining _____-sonli buyrug`i asosida davlat attestatsiya komissiyasiga himoyaga yuborildi.

Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan Shukurullaeva Gulmira Maksudovnaning bakalavr malakaviy bitiruv ishiga _____ ball quyildi.

Kirish.....	2
I-Bob. Milliy davlatchilik poydevorining barpo etilishi.	
1.1. Milliy davlat boshqaruvida yangi usullarning qaror topishi.....	9
1.2. Davlat hokimiyati tizimidagi o`zgarishlarning borishi.....	23
II-Bob. O`zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy tizimdagi o`zgarishlar.	
2.1. Hokimiyatlardagi o`zgarishlarning bozor islohotlari kontseptsiyasi bilan mutanosib olib borilishi.....	43
2.2. Suveren Qoraqalpog`iston Respublikasida davlat boshqaruvidagi o`zgarishlar.....	51
Xulosa.....	63
Ilovalar.....	65
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	75

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikning 22 yilligi yakunlanayotgan o'ta mas'uliyatli, shu bilan birga o'ta sharaflı tarixiy bir davrda yashayapmiz. Tarixan qisqa davrda mamlakatimiz hayotida ham, odamlar turmushida ham keskin burilish yasaldi. Turmush tarzimiz o'zgardi. Tafakkurimiz, shuurimiz tobora kengaydi. Endi boshqacha yashash zarurati, hayotga boshqacha qarash ehtiyoji tug'ilganini chuqurroq anglay boshladik va eng muhimi, uni turmush tarzimizga aylantira boshladik.

Mustaqillik yillari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tezkorligi, voqea va hodisalarning shiddatliligi, olamu odam taqdiriga dahldor bo'lgan dunyoviy muammolaru serqirra hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan umumiy qarashlarimizdan tortib, eng kichik, eng shaxsiy yumushlarimizgacha bo'lgan barcha hodisalarni o'zida mujassam etdi.

Tabiiyki, bunday hayotiy zaruriyat barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar qatori tarix fani oldiga ham yangi vazifalar qo'yadi. Tadqiqotchilar birinchi navbatda xalqning istiqloлга erishish yo'lidagi fidoiy mehnatini, milliy mustaqillikka erishish yo'llari va vositalarini, milliy davlatchilik qurilishiga doir tajribani, istiqlolni mustahkamlashning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy omillarini o'rganish va milliy istiqloл mafkurasini yaratish kabi bir qator muhim muammolarni har tomonlama mushohada qilmoqlari lozim. Darhaqiqat, o'rganishga, tadqiq etishga, dastlabki ilmiy-nazariy xulosalarni o'rtağa tashlashga asos bor.

«Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», -degan edi I.A.Karimov. Darhaqiqat, tarix xotirasi inson taraqqiyotiga kuchli ta'sir o'tkazadi, milliy istiqloл mafkurasini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Milliy ong, milliy tafakkur xalq tarixi, uning rivojlanish bosqichlarini nechog'lik o'rganish, undan saboq chiqarish bilan bog'liq. Ulug' allomalar aytganidek, tarix insonni istiqbolga da'vat etadi. Ulkan yaratuvchilikni rag'batlantiradi. Zotan, uning murabbiylik, tarbiyachilik, yo'naltiruvchilik kuchi xuddi ana shunda. Shu ma'noda

mamlakatimiz rahbari I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qoshida «O'zbekistonning yangi tarixi» Jamoatchilik kengashini tashkil qilish to'g'risida¹ PQ-1694 sonli Qarori katta tarixiy va siyosiy ahamiyatga ega.

Ana shu nuqtai nazardan qaraganda mustaqillikning o'tgan davrida mamlakatimizda amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlarni o'rganish, voqea-hodisalarni to'g'ri aks ettirish asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardayoq o'z eshiklari butun dunyo uchun ochiqligini, jahon xo'jalik munosabatlariga teng huquqli sherik sifatida kirish istagini, xalqaro huquq va qoidalarni ro'yobga chiqarish yo'lida amaliy harakatlarni kuchaytirishini e'lon qildi. 1995 yili respublika parlamenti O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan imzolangan 18 ta shartnoma va bitimni ratifikatsiya qildi. O'zbekistonning 25 ta xalqaro konventsiyaga qo'shilishi haqidagi qarorlar qabul qilindi. «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. U mamlakatimizning xalqaro shartnomalarni tuzish, bajarish, bekor qilish, to'xtatib qo'yish hamda denonsatsiya qilish tartibini belgilab berdi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda davlat o'z mustaqilligiga erishgandan keyin tabiiy ravishda uni boshqarish strukturasida ham o'zgarishlar yuz bera boshladi. Shu nuqtai nazardan davlat boshqaruv organlarida hokimiyat strukturasida ham bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi.

Davlat hokimiyati boshqaruvi organlari faoliyati xalq farovonligi va rivojlanishida muhim rol uynaydi Uning dolzarbligini shundan ham chuqurroq anglash mumkinki, 2014 yil 5 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 24 moddadan iborat «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga imzo chekd.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил, 27 январдаги ПҚ-1694-сонли «Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳузурида Ўзбекистоннинг энг янги тарихи бўйича Жамоатчилик кенгашини ташкил этиш тўғрисида»ги қарори.

Ushbu qonun 2014 yil 11 martda qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilindi. 10 aprel`da esa Senat tomonidan ma`qullandi².

Qonunning 3-moddasida «davlat hokimiyati va boshqaruvi, ularning tarkibiy va xududiy bo`linmalari faoliyatining ochiqligini ta`minlashga nisbatan tatbiq etiladi»,-deyilgan. Demak, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi islohotlar uchun emas, inson uchun, uning farovon turmushi uchun degan talabni yana bir karra tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, davlatni tizim boshqarishiga alohida e`tibor qaratildi. **«Davlat boshqaruvida davlatning istiqbolini odamlar yaratmaydi, uni odamlar gullatib-yashnatmaydi, balki bu ishni tizim bajaradi. Tizim yaratilsa, iqtidorli ijrochilar eng muhim joylarga qo`yilsa-ish yurishib ketaveradi. Tizimning o`zi ishlashi kerak. Bizning kelajagimiz va istiqbolimiz ana shunday»³.** Shunday ekan, boshqaruv tizimini yaratishga kirishildi

Tadqiqotning davriy chegarasi. Bitiruv malakaviy ishi darajasida o`rganish uchun O`zbekistonning mustaqillik davri olindi.

Tadqiqotning xududiy chegarasi. O`zbekiston Respublikasi deb belgilandi.

**Muammoning o`rganilganlik darajasi:** Mavzuning tarixshunosligi tahlilidan ma`lumki, o`rganilayotgan mavzuning ayrim yo`nalishlari bo`yicha hozirga qadar muayyan adabiyot to`plangan. Metodologik yondoshuvlarning xarakteriga va ilmiy baholarning xususiyatiga qarab, u quyidagi asosiy guruhlariga bo`linadi:

1) O`zbekiston o`z davlat mustaqilligiga erishgandan keyingi davlatimiz rahbari tomonidan davlat boshqaruv tizimidagi masalalarga bag`ishlangan asarlari tahlili;

2) O`zbekiston davlati tomonidan qabul qilingan qonun-qoidalar.

3) O`zbekistonning mustaqilligi davridagi nashrlar.

² Халқ сўзи газетаси. 2014 йил, 6-май. №87 (6017)

³ Каримов И. Ватан равнақи учун ҳар биримиз маъсулмиз. 9-жилд. –Т., «Ўзбекистон», 2001. 286 бет

1) O'zbekiston o'z davlat mustaqilligiga erishgandan keyingi davrda davlatimiz rahbari I.Karimov tomonidan davlat mustaqilligi, uning boshqaruv tartibi, hokimiyatdagi o'zgarishlar masalalariga e'tiborni qaratdi⁴. O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmasligi, inson, uning huquq va erkinliklari - oliy qadriyat ekanligi, Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash - bizning oliy maqsadimiz ekanligi, Jahon inqirozining oqibatlarini engish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarish kabi masalalarga asosiy e'tiborni qaratdi.

Shuningdek, davlat mustaqilligi davrida joylarda, hokimiyat strukturasida o'zgarishlar qilishni hayotning o'zi talab qila boshladi. Chunki bozor munosabitlariga o'tish, tabiiy ravishda joylarda ham boshqaruv tizimiga o'zgartish kiritish zaruriyatini tug'dirdi⁵.

2) O'zbekiston davlati tomonidan qabul qilingan qonun-qoidalar haqida so'z yuritganimizda, birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqida fikr yuritamiz. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasi O'zbekistonning xalq hokimiyatchiligiga bag'ishlangan. Unda «Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir. O'zbekiston Respublikasida davlat

⁴ Каримов И.А. Ўзбекистон дунё харитасида ўзига муносиб жой олди.; **Қаранг:** Каримов И.А. «Ўзбекистонда демократик узгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқоралик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари». -Т., «Ўзбекистон» 2002; Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт - пиروвард мақсадимиз. -Т., «Ўзбекистон», 2000. 8 жилд; Биз келажагимиз ўз қўлимиз билан қурамиз. -Т., «Ўзбекистон», 1999. 6 жилд; Ўзбекистон буюк келажак сари. - Т., «Ўзбекистон», 1998; Ўзбекистон миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. -Т., «Ўзбекистон», 1996. 1 жилд; 2011 йилнинг асосий якунлари ва 2012 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги «2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади» мавзусидаги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. - Т.: «O'qituvchi» НМИУ, 2012; Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари: статистик тўплам. - Т.: «Ўзбекистон», 2011; Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. // Халқ сўзи. 2010. 13 ноябрь. 220. (5135).

⁵ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т., 1997. 326 б.; Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т.: Ўзбекистон, 1999. 7-жилд. 410 б; Ўзбек халқи ҳеч қачон ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.: Ўзбекистон, 2005. 13-жилд. 446 б; Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари - олий қадрият. Т.: Ўзбекистон, 2006. 14 жилд. 280 б; Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш - бизнинг олий мақсадимиз. Т.: Ўзбекистон, 2009. 17-жилд. 278 б; Жаҳон инқирозининг оқибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтариш сари. Т.: Ўзбекистон, 2010. 18-жилд. 279 б; Юсак маънавият - энгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008. 176 б.; Жаҳон молиявий-иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартараф етишнинг йўллари ва чоралари. Т.: Ўзбекистон, 2008. 56 б.; Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Т.: Ўзбекистон, 2013. 4 б.;

hokimiyati xalq manfaatlarini ko`zlab va O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi,-deyilgan.

Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o`zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to`xtatib qo`yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo`ladi»,-deb atab o`tilgan⁶.

11-moddasida esa, «O`zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi - hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo`linishi printsiplari asoslanadi»⁷,-deb ko`rsatilgan. Bu demak, O`zbekistonda davlat boshqaruv usuli olib boriladi, deganidir.

Mamlakatimizning hayotiy muhim manfaatlarini belgilaydi, birinchidan, shaxsning huquqlari va erkinliklari; ikkinchidan, jamiyatning moddiy va ma`naviy boyliklari; uchinchidan, davlatning Konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini himoya qiladi. Shu bilan birga boshqa hududiy davlatlar bilan o`z-aro har tomonlama munosabatlarni yaxshilashga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, davlat boshqaruvini ta`minlovchi hujjatlar qabul qilindi.

Konstitutsiya qabul qilingunga qadar bir qator qonunlar qabul qilindi⁸.

Shuningdek, «Inson huquqlari. Inson huquqlari to`g`risida Bill`»; «Normativ huquqiy hujjatlar to`g`risida» kabi qonun-qoidalar va qonun osti

⁶ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т., 2012.

⁷ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.: Ўзбекистон, 2012.;

⁸ «Ўзбекистон Республикаси халқ депутатларининг мақоми тўғрисида»ги Қонун, 1990 йил 31 октябрь; «Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги асослари тўғрисида»ги Қонун, 1991 йил 31 август; «Ўзбекистон Республикаси Ижроия ҳокимияти - бошқарма идораларини тузилишини такомиллаштириш тўғрисида»ги Қонун, 1990 йил 3 ноябрь; Ўзбекистон Республикаси «Тошкент шаҳар ҳокимини сайлаш тартиби тўғрисида» муваққат Низомни тасдиқлаш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши Риёсатининг Қарори, 1991 йил 25 ноябрь ва бошқалар; 1992 йил 4 январда «Ўзбекистон Республикасининг маҳаллий ҳокимият идораларини қайта ташкил этиш тўғрисида»ги ва бошқа Қонунлар.

hujjatlari qabul qilindi. Bu hujjatlar O`zbekistonning davlat mustaqilligini va o`ziga xos siyosatini belgilab berdi⁹.

3) O`zbekistonning mustaqilligi davridagi nashrlar. O`zbekiston o`z davlat mustaqilligiga erishgandan keyingi davrda ushbu masalalar haqida bir qator olimlar o`z kitoblarini yaratdilar¹⁰. Sh.G`oyibnazarov O`zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish borasida olib borilayotgan tub o`zgarishlar haqida juda keng mulohaza yuritgan. N.Jo`raev O`zbekiston tarixining milliy istiqlol davriga tegishli qismida davlat strukturasidagi o`zgarishlar haqida ma`lumotlar beradi. Sh.T.Qudratxo`jaev O`zbekistonda professional parlament tizimining siyosiy institut sifatida shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlariga ahamiyat bergan. E.Axmedov esa O`zbekiston shaharlarining mustaqillik yillarida boshqariluv, hokimiyatlar roli haqida mulohaza yuritgan. R.Jumaev esa, siyosiy tizimni demokratlashtirish, xalqaro tajriba haqida ko`p materiallar va fikrlar bergan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Ishning maqsadi O`zbekistonning mustaqillik davrida davlat hokimiyati strukturasidagi o`zgarishlarni tahlil qilib o`rganishdan iborat. Shu munosabat bilan mazkur ish oldiga quyidagi vazifalar qo`yiladi:

- Milliy davlatchilik poydevorining barpo etilishini ko`rsatib berish;
- Milliy davlat boshqaruvida yangi usullarning qaror topganligini tahlil etish;
- Davlat hokimiyati tizimida yuz bergan tub o`zgarishlarni ko`rsatib berish;
- O`zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy tizimdagi o`zgarishlarni izohlash;
- Mustaqillik davrida bozor islohotlari kontseptsiyasining yaratilishi;

⁹ Инсон ҳуқуқлари. Инсон ҳуқуқлари тўғрисида Билль. Т.: Адолат, 1992. 264 б.; Инсон ҳуқуқлари: Умуминсоний ва миллий бирлик: (Халқаро шартнома ва Ўзбекистон Республикаси Қонуни). Т.1. Т.: Шарқ, 1996. -480 б.; Норматив ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси, 2001, №1-2. 176 б.;

¹⁰ Гойибназаров Ш. Давлат ҳокимияти ва бошқарувини демократлаштириш йўли. Т. Ўзбекистон. 2011; Н.Жўраев., Ўзбекистон тарихи (Миллий истиклол даври). 3-китоб. «Шарқ», 2011; Қудратхўжаев Ш.Т. Ўзбекистонда профессионал парламент тизимининг сиёсий институт сифатида шаклланиши ва ривожланиши истикболлари. Т.: Шарқ НМАК, 2007; Ахмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. - Т.:Абу Али ибн Сино нашр., 2002; Азизхўжаев А.А. Мустақиллик: курашлар, изтироблар, қувончлар. Т., 2001; Р.Жумаев. Давлат ва жамият: демократлаштириш йўлида. Т., 1998.

- Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasida davlat boshqaruvidagi o'zgarishlarni ko'rsatishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. O'zbekistonning o'z davlat mustaqilligiga ega bo'lishi munosabati bilan davlat boshqaruvini ta'minlash, shunga munosib ravishda boshqaruv usullariga o'zgarishlar kiritishga tegishli qiziqarli ma'lumotlarni o'quvchilarga etkazishga harakat qilindi.

Tadqiqotning bajarilish usullari. Tadqiqotning ilmiy-uslubiy asoslarini belgilashda tavsifiy usuldan foydalanildi. Bundan tashqari butun mavzuni yoritish jarayonida ko'plab o'rinlarda qiyosiy uslubga ham murojaat etildi. Ushbu usullar yordamida davlat mustaqilligining afzalligini ko'rsatish ko'zda tutildi.

Tadqiqotning nazariy-amaliy ahamiyati. Tadqiqot maktablar va oliy o'quv yurtlari, kolledjlar talabalarini qo'shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlashda amaliy yordam beradi.

Tadqiqotning tarkibiy tuzulishi. Ish kirish, ikki bob, to'rt paragraf, umumiy xulosalar, ilovalar va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-Bob. Milliy davlatchilik poydevorining barpo etilishi.

1.1. Milliy davlat boshqaruvida yangi usullarning qaror topishi.

Istiqlool yillarida jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida tub islohotlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar iqtisodiy hayotimizni ham qamrab oldi. Respublikaning boy imkoniyatlari, geosiyosiy sharoitidan kelib chiqib, O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonidagi eng muhim vazifalaridan biri bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish masalasi dastlabki kunlarning eng muhim vazifasi sifatida belgilandi.

O'tish davrida bozor iqtisodiyoti tushunchasi, unga o'tish zarurati, bozor iqtisodiyotiga o'tishning «O'zbekiston yo'li» kabi masalalarning tub mohiyatini anglash eng dolzarb masalalaridan biri edi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning umumiyligi, masalan, xususiy mulkchilik, iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va takomillashtirishda talab, taklif qoidalarining bir xilligi bo'lishi bilan bir qatorda har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiquvchi yo'li mavjuddir. Bunda uning xo'jalik tuzilishi va shart-sharoitlari, joylashgan eri, tabiati va iqlimi, milliy kelib chiqishi, urf-odatlar, an'ana va milliy tavsifi va boshqa omillar sabab bo'ladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, dunyodagi hamma mamlakatlar uchun maqbul bo'lgan bir xil taraqqiyot yo'li, bir xil andoza bo'lishi mumkin emas. Hozirda bozor iqtisodiyotiga o'tishning turli modellari mavjud bo'lib, ular barcha mamlakatlarni bitta manzilga - erkin bozor iqtisodiyoti tizimiga olib keladi. Ammo, bozor munosabatlari shakllanishining sotsial-iqtisodiy, tarixiy, milliy va xalqaro sharoiti har xil bo'lganligi tufayli, unga o'tishning milliy xususiyatlari ham mavjud bo'ladi. Shu nuqtai nazardan biror mamlakatning taraqqiyot yo'lini yoki taraqqiyot modelini borligicha qabul qilib bo'lmaydi. Natijada o'ziga xos yo'lni tanlash muhim hisoblanadi.

Sobiq tuzumda amal qilgan va markazlashgan ma'muriy boshqarish tizimiga asoslangan iqtisodiyot o'zining hayotiy emasligini, aholining o'sib boruvchi ehtiyojlarini ta'minlay olmasligini aniq ko'rsatdi. Natijada mustaqillik

yillarida mamlakat taraqqiyot uchun O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'lini ishlab chiqish va bu yo'lda tub islohotlarni belgilash zarurati yuzaga keldi. O'zbekistonning taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishga Prezidentimiz I.A.Karimov boshchilik qildi.

Islom Karimov o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari 1992 yil 4 yanvardagi IX sessiyasida so'zlagan dasturiy nutqida hamda 1992 yil avgust oyida nashr etilgan «O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li» asarida O'zbekistonning taraqqiyot yo'lini har tomonlama puxta belgilab berdi¹¹.

O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li Islom Karimovning keyingi asarlari, ma'ruza va nutqlarida yangi ma'no - mazmun bilan to'ldirilib, aniqlashtirilib borildi. O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish modeli Islom Karimov tomonidan ishlab chiqildi. Besh tamoyilni o'z ichiga olgan bu modelning mazmuni va mohiyati Prezidentning 1993 yilda nashr etilgan «O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li»¹² nomli asarida asoslab berildi.

Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan mustaqil taraqqiyot yo'li xalqimiz tomonidan ham, xalqaro maydonda ham taraqqiyotning «o'zbek modeli» deb qabul qilindi. O'zbek modeli ishlab chiqishda, birinchidan, xalqaro tajriba asos qilib olindi. Ikkinchidan, xo'jalik imkoniyatlari, shart-sharoitlari, eski tuzumdan meros bo'lib qolgan muammolar hisobga olindi.

«O'zbek modeli» beshta asosiy tamoyilning mohiyatini quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin¹³.

«O'zbek modeli» beshta asosiy tamoyilining mohiyati

Asosiy tamoyillar	Asosiy tamoyillarning mohiyati
Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi	Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo'ysundirilishi mumkin emas. Buning ma'nosi shuki, iqtisodiyot

¹¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. Т., 1992

¹² Каримов И.А. Ўзбекистон - бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли. Т., 1993

¹³ Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги қошида «Ўзбекистоннинг янги тарихи» Жамоатчилик кенгаши фонди материалларидан фойдаланилди.

	siyasatdan ustun turishi kerak. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan xoli qilish zarur.
Davlat bosh islohotchi, iqtisodiy o'zgartirishlarning tashabbuskori	Davlat bosh islohotchi bo'lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan o'tkazishi, jaholatparastlar va konservatorlar qarshiligini bartaraf etishi shart.
Qonunlar va ularga rioya qilish ustuvorligi	Qonun va qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lishi lozim. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim.
Kuchli ijtimoiy siyosat yurgizish	Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo'lidagi eng dolzarb vazifa bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.
Bozor iqtisodiyotiga bosqichma - bosqich o'tib borish	Bozor iqtisodiyotiga o'tish ob'ektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, o'tmishdagi «inqilobiy sakrashlar»siz, ya'ni evolyutsion yo'l bilan, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.

Shunday qilib, O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li nazariy va amaliy jihatdan puxta belgilab olindi. Bu barcha tamoyillar demokratik va iqtisodiy qayta o'zgartishlar jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, hayot sinovidan o'tdi.

O'zbekistonning sobiq Ittifoq tarkibida uzoq yillar davomida ma'muriy-buyruqbozlik tizimi ostida bo'lganligi, shuningdek, shundoq ham susayib borayotgan xo'jalik aloqalarining 1990 yillarning boshida Ittifoqning parchalanishi oqibatida batamom uzilib qolishi kuchli inqiroz holatlarini keltirib chiqardi. O'zbekiston iqtisodiyotining bir yoqlama tarzda, faqat xomashyo etishtiradigan holga tushib, kompleks rivojlanish yo'lga, aholi ehtiyojlarini qondirishga o'tkazilmagani ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilishidagi chuqur nomutanosibliklarda namoyon bo'ladi.

1990 yillarning boshida O`zbekistonda ijtimoiy ishlab chiqarish
tuzilishidagi chuqur nomutanosibliklar

Ko`rsatkich	Miqdori
Sanoatda tayyor mahsulotning ulushi	50 foiz
Qayta ishlanmasdan, respublika tashqarisiga chiqarilgan qishloq xo`jaligi mahsulotining ulushi	80 foizdan ko`proq
Respublikadan olib ketilayotgan mahsulot tarkibida xomashyo, materiallar va chala tayyor mahsulotlar ulushi	65 foizdan ko`proq
Respublikaga keltirilayotgan tovarlar tarkibida sanoati mahsulotlari (mashinalar, asbob-uskunalar, engil sanoat, va oziq-ovqat mahsulotlari) ulushi	60 foiz

Cobiq sovet davrining keyingi o`n yilliklari mobaynida iqtisodiyotni rivojlantirishda xomashyo va chala tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan va chetga yuboriladigan, mehnatni nisbatan kamroq talab qiladigan xomashyo tarmoqlarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilishi ushbu nomutanosibliklarni yanada kuchaytirdi. Jumladan, ishlab chiqarishning umumiy hajmida engil sanoatning ulushi keyingi 50 yil ichida 54 foizdan 37 foizga, oziq-ovqat sanoatining ulushi 30 foizdan 14 foizga tushib qolgan, mashinasozlikning ulushi atigi 7 foizga o`sib, 16 foizni tashkil etgan.

Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarini tarkib toptirish va rivojlantirishda qator nuqson va kamchiliklarga yo`l qo`yildi. Jumladan:

- respublika mashinasozlik kompleksi faoliyati paxtachilik, paxtachilik uchun mashinalar ishlab chiqarish bilan cheklanib, murakkab uy-ro`zg`or texnikasi, yo`l qurish mashinalari, plastmassa buyumlari, oziq-ovqat sanoati jihozlari, savdo-sotiq va maishiy xizmat sohasi uchun kerakli asbob-uskunalar deyarli ishlab chiqarilmadi;

- kimyo sohasining rivojlanishida yirik korxonalarga afzallik berilishi respublikadagi ekologik vaziyatni juda yomonlashtirib yubordi;

- yirik kimyo korxonalari nitron, atsetat, kaprolaktam singari dastlabki qayta ishlangan mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashib, ularning mahsulotlari ham asosan respublikadan tashqariga chiqarishga mo`ljallandi.

Mamlakatimiz rahbari tomonidan O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilib, bu boradagi strategiyaga quyidagi yondashuvlar asos qilib olinishini belgilab berdi:

- mintaqamiz taraqqiyotining tarixiy asoslari, oqilona mantiq e'tiborga olinmay, ma'muriy-buyruqbozlik usullari tazyiqi ostida shakllangan qarashlarning hammasiga barham berilishi kerak;

- mintaqamiz taraqqiyotining istiqbollari avvalo respublika aholisining manfaati nuqtai nazaridan qaramoq kerak.

Respublikani iqtisodiy mustaqillik yo'liga olib chiqish, uni inqiroz girdobidan chiqarish vazifalarini hal etishda O'zbekiston resurslari va imkoniyatlariga baho berishga mutlaqo yangicha yondashish zarurligi ta'kidlandi. Bu borada aniq reja asosida chora-tadbirlar olib borildi.

Insoniyat tarixidan ma'lumki, har qanday jamiyatda davlat va boshqaruv, o'sha davlat konstitutsiyasida ko'zda tutilganidek, uning tub maqsadlariga mos bo'lishi kerak. Buni O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi ijtimoiy hayot ham taqozo qila boshladi. O'zbekistonda prezidentlik instituti o'rnatilgan dastlabki davrda Vazirlar Kengashi ijroiya hokimiyati sifatidagi huquqiy maqomini va vakolatlarini saqlab qolgan edi. Chunonchi, uning 1990 yil 30 martda Oliy Kengash tasdiqlagan yangi tarkibi 41 kishi, ya'ni Rais, Bosh vazir, uning ikki birinchi o'rinbosari, to'rt o'rinbosari, 19 vazir, 14 davlat qo'mitasi raisidan iborat edi. Respublikada demokratik jamiyat qurish borasida boshqaruv idoralari tobora takomillashib bordi.

O'zbekistonda yangi jamiyat qurish borasida tajribalar ortishi bilan Prezidentlik boshqaruvi ham rivoj topib bordi. Bu borada 1990-1992 yillarda amalga oshirilgan ishlarni ko'rsatish mumkin. Bu davrda Prezidentlik Hokimiyati bilan Vazirlar Kengashining ijroiya boshqaruv hokimiyati qo'shib yuborilib Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi. 1990 yil 15 noyabrda Prezident I.A.Karimov «O'zbekiston SSJ Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining tarkibini tasdiqlash to'g'risida» Farmon chiqardi. Prezidentning ushbu farmoni asosida xalq xo'jaligi dehqonchilik sanoati, xalq iste'moli mollari, qurilish-transport, mashinasozlik,

yoqilg'i-energetika, umumiy-tisodiyot, moddiy-texnika, madaniyat ishlari komplekslariga ajratilib, uning rahbarlari belgilandi va ular Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiritildi.

1991 yil sentyabr oyidayoq Prezident I.A.Karimov: «Biz O'zbekiston davlat milliy siyosatining yo'nalishlarini va strategiyasini qamrab oluvchi keng ko'lamdagi va istiqbolga mo'ljallangan dasturni ishlab chiqdik va amalga oshira boshladik. Bu siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri boshqarishning demokratik shakliga, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanuvchi real mustaqil milliy davlatchilikni qaror toptirish», - deb ta'kidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasida shunday qayd qilinadi: «O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi»¹⁴.

O'zbekistonda boshqaruvning Prezidentlik respublika shaklining yuzaga kelishi va takomillashuvida 1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Unda saylovni o'tkazish qat'iylari, prezidentlikka nomzodlar ko'rsatish va ularni ro'yxatga olish, ovoz berish va saylov yakunlarini chiqarish tartibi kabi o'ta muhim huquqiy qoidalar o'z ifodasini topadi¹⁵.

O'zbekistonda Prezidentlik respublika boshqaruvining yanada takomillashuvida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki yangi Asosiy Qonunga muvofiq, Prezidentning huquqiy maqomi yanada takomillashdi va ma'lum darajada kengaydi. Chunonchi, Prezident lavozimiga 35 yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekistonda muqim yashagan respublika fuqarosi saylanishi mumkin, deb belgilandi¹⁶.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasida «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh

¹⁴ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 2012.

¹⁵ Жўраев Н. Ўзбекистон тарихи. Учунчи китоб. Т., Шарк. 2011. 99 бет

¹⁶ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т., 2012

vaziri, uning o`rinbosarlari, vazirlar, davlat qo`mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog`iston Respublikasi hukumatining boshlig`i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o`z lavozimi bo`yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma`naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O`zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta`minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O`zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo`lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi»¹⁷.

O`zbekistonda milliy davlatchilik qurilishida Prezident Islom Karimovning xizmatlari katta. Islom Karimov o`zining asarlarida milliy davlatchilik qurilishining nazariy jihatlarini asoslab berdi. Shuningdek, milliy davlat tizimini yaratishga amaliy rahbarlik qilmoqda. Islom Karimov tashabbusi bilan O`zbekistonda Prezidentlik Respublika boshqaruvi qaror topdi¹⁸.

O`zbekistonda boshqaruv tizimi tubdan isloh qilindi. O`zbekistonning davlat suverenitetini amalga oshiruvchi tuzilmalar-Tashqi ishlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Fan va texnika davlat qo`mitasi, Oliy Attestatsiya Komissiyasi tashkil etildi. 1991 yil 6 sentyabrda Mudofaa ishlari vazirligi tuzildi. Mustaqillikni, hududiy yaxlitlikni himoya qilish uchun 1992 yil 14 yanvarda O`zbekiston Respublikasi milliy gvardiyasi tuzildi. 1992 yil iyulda Mudofaa ishlari vazirligi Mudofaa vazirligiga aylantirildi. Adliya vazirligining faoliyati takomillashtirildi.

Respublikaning tashqi faoliyati masalalari bo`yicha shug`ullanadigan idoralari tizimi ham takomillashtirildi. Jumladan, 1991 yil 7 sentyabrda O`zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil qilindi. 1992 yil 21 fevralda Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tuzildi. O`sha yili 10 avgustda esa

¹⁷ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 2012.

¹⁸ Жўраев Н. Ўзбекистон тарихи. Учунчи китоб. Т., Шарк. 2011. 105 бет

O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo'mitasi barpo etildi, shuningdek tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish va himoya qilish choralari belgilandi. O'zbekiston hududida sayohat sohasidagi yagona siyosatni ishlab chiqib, amalga oshirishni ta'minlaydigan muvofiqlashtiruvchi bosh idora sifatida «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi ham barpo etildi. Mustaqillik qo'lga kiritilgan dastlabki kunlardan bozor iqtisodiyotiga o'tishni ta'minlovchi, bozor munosabatlarining faoliyati uchun imkon beruvchi yangi boshqaruv tizimini yaratish zarur edi. Negaki, birinchidan, yangi jamiyatga o'tishda boshqaruvida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik, MDHga kiruvchi ayrim davlatlarda bo'lganidek, iqtisodiyotni boshqaruvchi real dastaklarni qo'ldan chiqarmaslik lozim edi.

Ikkinchidan, o'tish davrida etuk bozor munosabatlari va mexanizmlari to'la shakllanmagan edi. Shu boisdan O'zbekiston iqtisodiyoti rivoji bilan shug'ullanuvchi davlat idoralari tizimida tubdan o'zgarishlar qilindi. Mamlakatda 1990 yil dekabrda ma'muriy-buyruqbozlik, to'rachilik tizimining o'zagini tashkil etuvchi Davlat reja qo'mitasi Iqtisod komissiyasiga aylantirildi. 1992 yilda shu komissiya negizida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Taraqqiyot va istiqbolni belgilash qo'mitasi tashkil etildi. 1992 yil 5 avgustda esa ushbu qo'mita bilan Statistika davlat qo'mitasi birlashtirildi va ular negizida Vazirlar Mahkamasining Istiqbolni belgilash va statistika davlat qo'mitasi va joylarda uning tegishli idoralari barpo etildi. Bu qo'mita vazifalariga iqtisodiyotdagi islohotlarni tahlil qilish, baho berish, takliflar kiritish, O'zbekistonni taraqqiy ettirishning ustuvor yo'nalishlari va tashqi iqtisodiy aloqalar strategiyasini ishlab chiqish, aholi moddiy farovonligini oshirish va uni ijtimoiy muhofaza etish, yagona statistika siyosatini o'tkazish kabilar kiritildi. 1997 yildan ushbu qo'mita Makroiqtisodiyot vazirligiga aylantirildi.

O'zbekistonda moliya idoralarini boshqarish tashkiliy tuzilmasi va narx belgilash tizimi isloh qilindi. Shu boisdan Davlat narxlar qo'mitasi tugatilib, narxlarga doir davlat siyosatini o'tkazish vazifalari Moliya vazirligiga topshirildi. Moliya vazirligi tarkibida narxlarni nazorat qilish, narxlarni belgilashda yakkahokimlikka yo'l qo'ymaslik, raqobatchilik muhitini shakllantirish ishlariga ko'maklashuvchi maxsus boshqarma tuzildi.

Taqsimot bo'yicha yakkahokim bo'lib olgan Davlat ta'minot qo'mitasi o'miga Respublika ulgurji va birja savdosi aktsiyadorlik uyushmasi tuzildi. Uyushma tarkibiga respublika aktsiyadorlik tovar-xom ashyo birjasi, aktsiyadorlik birja banki, hududiy aktsiyadorlik tijoratchi-vositachi kompaniyalar kirdi. Uyushma tovar ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar va tadbirkorlar uchun tovar resurslari bozorida erkin ishtirok etishga teng imkoniyatlar yaratish, ularga tijorat-vositachilik, savdo va marketing xizmatlari ko'rsatish ishlari bilan shug'ullanmoqda.

Respublikada moliya va bank tizimi tubdan o'zgardi. Moliya vazirligi respublika byudjetini shakllantirish bilan bir qatorda, davlat soliq siyosatini, moliya siyosatini belgilamoqda, valyuta ishlarini boshqarmoqda. Bank tizimi isloh etildi. Davlat banki va uning bo'linmalari tugatildi, Markaziy bank, Tashki iqtisodiy faoliyat milliy banki, Sanoat-qurilish banki, Paxta banki, O'zjamg'armabank, ixtisoslashtirilgan aktsiyadorlik-tijorat banklari-«G'allabank», «Mevasabzavotbank», «Tadbirkorbank», «Savdogarbank», xususiy banklar va boshqa banklar tuzildi. Banklarning mustaqilligi va pul muomalasidagi ahvol uchun javobgarligi oshirildi.

Davlat nazorati tizimi tartibga solindi. Davlat soliq qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi tuzildi. Davlat nazorati qo'mitasi, uning joylardagi organlari tugatildi, Prezident devonida nazorat inspeksiyasi, hokimiyatlarda tegishli nazorat inspeksiyalari tuzildi.

Islohotlarni chuqurlashtirish va muvofiqlashtirish maqsadida Prezident huzurida Iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo'yicha Idoralararo Kengash tuzildi, Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi tashkil etildi. Bu qo'mita mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturlarini ishlab chiqishda, ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishda muhim tadbirlarni amalga oshirdi. Ko'mita investitsiya fondlari, fond birjalari, ko'chmas mulk birjalari, auditorlik xizmatlari va boshqa bozor munosabatlariga mos yangi tuzilmalarni tashkil etdi.

O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan aloqasini yo'lga qo'yish maqsadida respublika tarixida birinchi marta Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tuzildi. Vazirlik tovarlar va xizmatlar xalqaro bozorini tahlil qilish, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi strategiyani ishlab chiqish, eksport-import bo'yicha markazlashgan tartibda

mahsulotlar etkazib berish ishlarini tashkil etmoqda. Vazirliklar, idoralar, korxonalarda tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi bo'limlar, tashkilotlar, firmalar tuzildi. Respublikada tashqi aloqalarni ta'minlaydigan yaxlit tizim tarkib topdi.

O'zbekistonning ishlab chiqarish, transport bo'yicha tarmoq vazirliklari tugatilib, ular o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlaydigan uyushmalarga, kontsernlarga, korporatsiyalarga va boshqa xo'jalik birlashmalariga aylantirildi. Avtomobil transportida, qurilishda boshqaruv tizimi qayta tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Madaniyat ishlari vazirligining strukturasi, faoliyati va ish yuritish usullari tubdan o'zgardi. Mehnat vazirliga, Ijtimoiy ta'minot vazirligi tashkil etildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

Umummilliy ahamiyatga molik bo'lgan tarmoqlarda, aytaylik, sayohatchilik, transport, madaniyat, kino, televidenie va radio tizimi va boshqalarda iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan milliy kompaniyalar tashkil etildi.

Shunday qilib, mustaqillik qo'lga kiritilgandan beri o'tgan qisqa tarixiy davrda milliy huquqiy davlat, uning zamonaviy hokimiyat organlari barpo etildi, ixcham, ochiq va tadrijiy rivojlanishga ega bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tizim yaratildi.

Biz yuqorida qisqacha sanab o'tgan markaziy boshqaruv idoralari tizimining barpo etilishi asosan ikki holat bilan izohlanishini, ya'ni O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishuvi va uning bozor iqtisodiyotiga o'ta boshlashi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlamog'chimiz.

Xulosa sifatida uch muhim jihatni alohida ta'kidlash lozim. Birinchidan, ilgari respublika davlat boshqaruvi sohasida juda katta va hal qiluvchi masalalar Ittifoq idoralari vakolatida edi. Mustaqillik sharoitida bu vakolatlar to'liq ravishda O'zbekiston Respublikasi tegashli markaziy idoralariga-Prezident, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va boshqa mahkamalarga o'tdi. Avval respublika hukumati, vazirliklari va davlat qo'mitalarining 80-90 foizi markazning tegashli idoralariga itoat etgan bo'lsa, endilikda ular mustaqil davlat idoralariga aylandi.

Ikkinchidan, boshqaruv tizimidagi tub islohotlar natijasida markazlashtirilgan tartibdagi qayta taqsimlash mexanizmidan bozor mexanizmiga, qattiq mahkamachilik va ma'muriy-buyruqbozlikdan huquqiy boshqaruvga, iqtisodiy omillar orqali o'zini-o'zi idora etishga o'tildi.

Uchinchidan, ilgari vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa markaziy mahkamalar faqat davlat korxonalari va tashkilotlariga rahbarlik qilgan bo'lsa, endilikda ular o'miga barpo etilgan kontsern, assotsiatsiya, kompaniya, uyushma va korporatsiyalar ham davlat, ham mulkchilikning boshqa shakllari asosida faoliyat qo'rsatuvchi korxona va tashkilotlarga rahbarlik qilyapti, ularning faoliyatini muvofiqlashtirib turibdi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlariga e'tibor kuchaytirildi. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonida ko'plab vazifalarni belgilagan edi. Eng muhim vazifalaridan biri bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchisi respublikada davlat hokimiyatining vakillik va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini yangi sharoitlarga mos keladigan tizimini yaratish edi. Hozirgi amalda bo'lgan mahalliy vakillik organlari yangi organlar bo'lmasdan, xalq deputatlari Sovetlari negizida tashkil qilingan. Ma'lumki, sobiq sovetlar davrida amalda bo'lgan mahalliy xalq deputatlari Sovetlari aniq bir hokimiyatga ega bo'lmay, ular huquqsizligining bosh sababi partiya organlari to'g'ridan - to'g'ri ularning ishiga aralashar va ularga saylanadigan deputatlar partiya organlari tomonidan tanlanar edi.

1990 - 1992 yillari O'zbekiston Respublikasining asosiy qomusi - Konstitutsiyasining qabul qilingunicha bo'lgan davrda mahalliy hokimiyat organlari tizimini shakllantirish maqsadida bir necha Qonunlar qabul qilindi¹⁹.

¹⁹ «Ўзбекистон Республикаси халқ депутатларининг макоми тўғрисида»ги Қонун, 1990 йил 31 октябрь; «Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги асослари тўғрисида»ги Қонун, 1991 йил 31 август; «Ўзбекистон Республикаси Ижроия ҳокимияти - бошқарма идораларини тузилишини такомиллаштириш тўғрисида»ги Қонун, 1990 йил 3 ноябрь; Ўзбекистон Республикаси «Тошкент шаҳар ҳокимини сайлаш тартиби тўғрисида» муваққат Низомни тасдиқлаш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаш Рийсатининг Қарори, 1991 йил 25 ноябрь ва бошқалар; 1992 йил 4 январда «Ўзбекистон Республикасининг маҳаллий ҳокимият идораларини қайта ташкил этиш тўғрисида»ги ва бошқа Қонунлар.

Bu qonunlar mamlakatimizda mahalliy hokimiyatning ikki mustaqil organi - vakillik va ijro organlari tizimiga boshchilik qiladigan hokimlik va hokimlar lavozimi joriy etildi. 1992 yil 14 yanvarda ___4-yanvar`da qabul etilgan «O`zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to`g`risida»gi qonunga O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Konstitutsiyaviy qonun maqomini berdi. 1992 yilda Toshkent shahrida va 12 ta viloyatda, 163 ta qishloq tumani va 18 ta shahar tumanida hamda 120 ta shaharda hokimlar tayinlandi va tasdiqlandi, ularning apparati - hokimiyatlar tuzildi.

1992 yildan O`zbekistonda mahalliy hokimiyat organlari tizimini shakllantirish sohasida qator normativ - huquqiy hujjatlar qabul qilish borasida amaliy ishlar boshlandi. Bu hujjatlar orasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan «Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida»gi va «Fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari to`g`risida»gi Qonunlar, 1994 yil 5 mayda qabul qilingan «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlariga saylovlar to`g`risida»gi Qonun va boshqalar muhim o`rin egallaydi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobi «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari» deb nomlanib, unda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tizimi, mavqei, vazifalari, tuzilish tartibi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. Konstitutsiyaga ko`ra avvalgi mahalliy vakillik organlarining nomini Kengashlar deb o`zgartildi. Ularning samarali ishlashini ta`minlash uchun viloyat, tuman va shahar Xalq deputatlari Kengashlari vujudga keltirildi.

Shuni ta`kidlash lozimki, amaldagi O`zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinguncha mahalliy vakillik organlarining uch bo`g`inli tizimi mavjud bo`lib, ular:

- 1) viloyatlar hamda Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari (Sovetlari) - yuqori bo`g`in hisoblanardi.
- 2) tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari - o`rta bo`g`in;
- 3) qishloq, posyolka, ovul xalq deputatlari Kengashlari - quyi bo`g`in;

Konstitutsiya mahalliy vakillik organlarining ikki bo'g'inli tizimini mustahkamladi, ya'ni quyi bo'g'in olib tashlandi. Ular o'rniga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tuziladigan bo'ldi. Bu qoida «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari to'g'risida»gi Qonunda o'z ifodasini topdi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada mahalliy davlat hokimiyati hokimiyat organlari ikki mustaqil organlarga - vakillik va ijroiya hokimiyatiga bo'lindi²⁰.

Mahalliy vakillik organlariga - xalq deputatlari Kengashlari kiradi. Ular o'z faoliyatini jamoaviy (kollegial) asosda olib boradi. Xalq deputatlari Kengashlari ishining asosiy tashkiliy - huquqiy shakli sessiya hisoblanadi.

«Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi Qonunda vakillik organlariga 21 yoshga to'lgan fuqarolar saylanadi. Saylovlar ko'ppartiyaviylik, muqobillik asosida o'tadi. Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga 60 tadan ko'p bo'lmagan, tuman va shahar Kengashlariga esa 30 tadan ko'p bo'lmagan deputatlar 5 yil muddatga saylanadi.

Ijroiya hokimiyatiga - hokim va uning ijroiya apparati qiradi. Hokim tegishli hududda oliy mansabdor shaxs hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 101 - moddasiga ko'ra hokimlarning vakolat muddati - besh yil. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 102 - moddasiga ko'ra, «Vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishliligiga qarab viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi.

Viloyat va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

²⁰ Жўраев Н. Ўзбекистон тарихи. Учунчи китоб. Т., Шарк. 2011. 130 бет

Shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tumanlarga bo'ysunadigan shaharlarning hokimlari tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi».

Vakillik organlari tuzilmaydigan shahar tarkibidagi tumanlarda va tumanga bo'ysunuvchi shaharlarda ham hokimiyatlar ta'sis etildi, ularning apparati - hokimiyat tashkil etildi. Viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Prezidentining shu joylardagi vakili hisoblanadi. Toshkent shahar tumanlari hokimlari esa Toshkent shahar hokimining vakillari hisoblanadi.

Mahalliy davlat hokimiyat organlarining faoliyati murakkab tuzilishga ega bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonun va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Bu organlar sud hokimiyati organlari, prokuratura, nazorati speksiyasi, ichki ishlar organlari, adliya singari huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorlikda ish olib boradi.

Mazkur davlat organlarini ikki toifaga bo'lish mumkin:

- 1) mahalliy davlat hokimiyati organlariga bo'ysunuvchi organlar: ichki ishlar, nazorat inspeksiyasi va adliya organlari.
- 2) mahalliy davlat hokimiyati organlariga bo'ysunmaydigan sud, prokuratura organlari.

Shunday qilib, mahalliy davlat hokimiyati organlari bu sohada o'z vakolatlarini amalga oshirish borasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan bir xil munosabatda faoliyat ko'rsatishi bilan birga ularning ishlarini muvofiklashtirib turmoqda.

1.2. Davlat hokimiyati tizimidagi o'zgarishlarning borishi.

O'zbekiston mustaqilligi yillarida mahalliy hokimiyat organlari tubdan isloh qilindi. Avvalo shuni aytish kerakki, bu tizim tarkibiga viloyat, tuman, shaharcha, shaharlar tarkibidagi tuman, shahar, qishloq, posyolka doirasidagi hokimiyat muassasalari majmui kiradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng boshqaruvning bu tizimida islohot o'tkazishni taqozo qilgan omillar nimalardan iborat edi degan savol tug'iladi.

Birinchidan, viloyat, shahar va tumanlardagi hokimiyat organlari hisoblangan xalq deputatlari Kengashlari shaklan demokratik tarzda shakllantirilsada, ularning ish faoliyatida demokratik tamoyillarga amal qilinmas edi. Ular Sobiq KPSS siyosatini hayotga tadbqiq etish quroliga, aniqrog'i partiya tashkilotlari rahbarlik qiladigan bir muassasaga aylanib qolgan edi.

Ikkinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni xalq deputatlari mahalliy Kengashlari mustaqilligini kengaytirish, hududlar tizimida tub o'zgarishlar kilishni ham talab qila boshladi. Ma'lumki, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida hududiy taraqqiyot ko'pincha markazlashtirilgan tarzda qayta taqsim qilinadigan davlat byudjeti ajratmalari hisobiga amalga oshirilar edi. Yangicha munosabatlarga o'tish jarayonida mahalliy hokimiyat organlari o'z hududining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga bevosita mas'ul bo'lishini talab qilardi. Mahalliy hokimiyat tizimini shakllantirish sohasida bir qator qonun va rasmiy hujjatlar qabul qilindi. Ular orasida Oliy Kengashning o'n birinchi sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonun (1993 yil, sentyabr), «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish idoralari haqida»gi Qonun (1993 yil, sentyabr), «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylovlar to'g'risida»gi Qonun (1994 yil, may) kabilar muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 99-moddasida ta'kidlanganidek, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari hisoblanadi.

Ularning vakolatlari muddati 5 yil bo`lib, O`zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezident farmonlari, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlaridan kelib chiqqan holda hududni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish masalalarini hal qilishda qatnashadilar. 1994 yil 25 dekabrda Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga saylovlarga Qoraqalpog`iston Respublikasi Jo`qorg`i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlari katta tayyorgarlik ko`rdilar.

Toshkent shahrida Xalq deputatlari shahar Kengashiga saylov o`tkazuvchi 60 ta oqruq tuzildi. Qonunda belgilangan tartibda va tavsiya etilgan vaqtda kalendar` rejasiga asosan shahar Kengashiga saylov o`tkazuvchi 60 ta saylov komissiyasi tashkil etildi.

Saylov komissiyalari tarkibiga sanoat korxonalari, jamoat tashkilotlari, xalq ta`limi, sog`liqni saqlash xodimlari va mahalla yig`inlari vakillaridan iborat 810 kishi jalb etildi.

Andijon, Samarqand, Qashqadaryo, Xorazm va Namangan viloyatlarida deputatlikka nomzodlar ko`rsatish demokratik tamoyillarga amal qilingan holda olib borildi. Bu jarayon siyosiy partiyalar, hokimiyat vakillik organlari ishtirokida, muqobillik asosida amalga oshirildi. Natijada viloyatlar, tumanlar va shaharlarda vakillik organlari bo`lmish Xalq deputatlari Kengashlariga xalqning munosib farzandlari saylandilar.

Hokimlikning tashkil Milliy davlatchilik tarixi tajribasidan kelib chiqqan holda va «O`zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to`g`risida»gi Qonunga muvofiq viloyat, shahar va tumanlarda hokim lavozimi ta`sis etildi. Viloyat, tuman, shahar hokimi mahalliy hududning oliy mansabdor shaxsi sifatida tegishli hudud ijroiya hokimiyatini boshqaradigan bo`ldi. Respublikaning 12 viloyati va Toshkent shahrida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan va tegishli Xalq deputatlari Kengashlari sessiyasida tasdiqlanadigan hokimlar boshchiligidagi hokimliklar tashkil qilindi. Shuningdek, 163 ta qishloq tumanlari, 18 ta shahar tumanlarida, 120 ta shaharda hokim saylandi.

Qoraqalpog`iston Respublikasida xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari va tegishli hokimlarning faoliyati O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Mahalliy

davlat hokimiyati to'g'risidagi Qonun va Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlari bilan tartibga solinadigan bo'lindi.

Hokimlikda ko'proq mustaqillik, o'z hududida o'z hukmi va so'zining salmog'ini oshirish, xo'jalik va iqtisodiy boshqaruvda qat'iyat bilan ishlash imkoniyati kengaydi. Hokimlik usulining ixchamligi, buyruqbozlik va qog'ozbozlikning kamayishi, hayotga va ishlab chiqarishga yaqinligi bilan oldingi boshqaruv tizimi an'analari va usullaridan ancha afzalliklarga ega bo'ldi. Hokim va uning ijroiya agsharati joylardaga korxona va muassasalarga rahbarlik qilmoqda. Mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolar manfaatiga moslab hal etmoqda.

Mamlakatda mahalliy davlat hokimiyati idoralari tizimini takomillashtirishda uni ham shaklan, ham mazmunan o'zgartirishga jiddiy e'tibor berildi. Eng avvalo islohotlarni qonun bilan mustahkamlash, davlat boshqaruvi yangi tizimining huquqiy negizlarini yaratish, qonun ustuvorligini ta'minlash choralari ko'rildi.

Prezident siyosatining bosh yo'li huquqiy, demokratik davlatni vujudga keltirish, hamma narsadan qonunni ustun qo'yish, qonun oldida barchaning tengligini ta'minlash, «fuqaro-jamiat-davlat» printsipini joriy etish, ana shu yo'l bilan fuqarolar jamiyatini vujudga keltirishdan iborat. Bu printsipga zid bo'lgan barcha harakatlarga qarshi mamlakatda qat'iylik bilan kurash olib borildi. Joylarda qonunni hurmat qilmaslik, o'quvsizlik va boshqa illatlar tufayli mavqeini yo'qotib qo'ygan ayrim viloyatlar va o'nlab tuman hokimlari, mahalliy huquq organlari, savdo, tabobat, maishiy xizmat tarmoqlarining rahbarlari xizmat vazifalaridan ozod etildi. Bu tuzumni illatlardan tozalash, fuqarolar jamiyatini shakllantirish, insonga buyuk ne'mat sifatida qarash kabi xalqchil siyosat amalga oshirilmoqda.

Shunday qilib, respublikada davlat hokimiyati barcha organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi qonunlar bazasi vujudga keldi. Ular markaziy, viloyat, shahar va tumanlar darajasidagi davlat hokimiyati va boshqaruv funktsiyalarini aniq qilib belgilab berdi. Bu mustaqil milliy davlatchiligimizni ta'minlovchi muhim shartlardan biridir. Osiyo mintaqasi va musulmon sharqida davlat qurilishi va boshqaruv tajribasi o'ziga xos xususiyatlarga va o'ziga xos an'analarga ega. Sharqqa qadimdan ijtimoiy-siyosiy hayotda mahallalarning roli salmoqli bo'lgan.

Darhaqiqat, mahalla azaldan O`rta Osiyodagi shaharlar ichidagi hududiy birlik bo`lib, u bizga o`tmishdan meros bo`lib qolgan. Arablar istilosi va islom dini qabul qilinganidan ancha ilgari paydo bo`lgan mahalla muayyan bir kichik hududda istiqomat qiluvchi odamlar birlashmasi bo`lib, unda odamlar faqat qo`shnichilik rishtalari bilangina emas, balki yuzlab yillar davomida yaratilgan ichki tartib-qoida, ma`naviy-axloqiy normalar, urf-odatlar va an`analalar bilan ham bog`langan.

O`zbekiston Konstitutsiyasida o`z-o`zini boshqarish organlarini tuzish tartiblari belgilab berildi. Konstitutsiyaning 105-moddasida «Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig`inlari o`zini-o`zi boshqarish organlari bo`lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi.

O`zini-o`zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi», -deb belgilab qo`yilgan. Fuqarolarning yig`inlarida ikki yarim yil muddatga mahalla raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylanadi.

Mahalla-o`zini-o`zi boshqarishning asosiy bo`g`ini. Bu aholining ijtimoiy masalalarini hal etishda muhim rol` o`ynaydi. Mahallada har bir kishining taqdiri, orzu-umidi, hayotga va odamlarga munosabati qat`iy nazoratda turadi, ular bir-biri bilan hisoblashib yashashadi. Shu bilan birga mahallachilik uzoq an`analarga va xalqimiz tarixiga, uning boy ma`naviy-axloqiy udumlariga bog`liq bo`lgan ulkan hayot maktabidir.

Mustaqillik qo`lga kiritilgach, butun mamlakatimiz hududlari-shahar, tuman, qishloq va mahallalarda yangi turmush tarzini shakllantirishda, jamiyatda shaxsning rolini oshirishda, o`zini-o`zi idora qila olish fazilatlarini kuchaytirishda, o`z hayotini o`zi tashkil etish tamoyillarini kundalik faoliyatga aylantirishda mahalla imkoniyatlaridan foydalanish zarur edi. Jamiyatni tubdan isloh qilish jarayonlari fuqarolarning o`z-o`zini boshqarish mahalliy organlari faoliyatini o`zgartirishni, uni milliy an`analalar va jahon tajribalari asosida tashkil etishni taqozo etadi.

«Boshqaruv vazifalarining asosiy qismini markazdan viloyatlarga, viloyatlardan shahar-tumanlardaga davlat va boshqaruv idoralariga o`tishini

ta'minlash darkor. Shu tariqa bu bosqich asta-sekin o'z-o'zini boshqarish jamoatchilik tashkilotlariga ham etib boradi», -deydi Prezident I.A.Karimov. Bu yo'l bevosita mamlakatimizda fuqarolik jamiyati shakllanishi va fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish tamoyilining bosh yo'nalishiga aylanib qoldi.

O'zini-o'zi boshqarish organlarini tashkil etishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993 yil sentyabrda bo'lib o'tgan XII sessiyasida qabul qilingan «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonun alohida ahamiyatga ega bo'ldi²¹. Qonunda ma'lum bir hududda birlashgan jamoa o'zini-o'zi boshqarish idoralarini ma'lum turar joy mavzesi, qishloq, posyolka, ko'cha doirasida tashkil etadi, deb qayd etilgan.

Qonun fuqarolar yig'ida qaror qabul qilishga imkon beruvchi huquqiy shakllarni ko'rsatib berdi. Fuqarolar yig'ini unda ishtirok etish huquqiga ega bo'lganlarning kamida yarmi, aholisi ko'proq mahallalarda bo'ladigan vakillar majlisi esa delegatlarning uchdan ikki qismi qatnashganda qonuniy kuchga ega bo'ladi. Yig'inni rais yoki uning maslahatchilaridan biri olib boradi. Qarorlar ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi va u tegishli hokimiyatga yuboriladi.

Fuqarolar yig'ini vakolatlari kengaytirildi. Ular qonunning 17-moddasiga muvofiq davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan kelishgan holda savdo, umumiy ovqatlanish va aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarining ish vaqtini aholiga qulay holda belgilashlari, ma'muriy komissiya tashkil etishlari mumkin. Bu mamlakatda fuqarolar faolligini oshirish, o'z turmushini yo'lga qo'yish va jamiyat umumiy qiyofasini shakllantirish imkonini beradi.

Bularning hammasi mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari faoliyatini mahalliy sharoitga yaqinlashtirishga, ortiqcha rasmiyatchiliklarga barham berishga va aholining jamiyatni boshqarishda mumkin qadar ko'proq ishtirok etish imkoniyatlarini kentaytirishga xizmat qilmoqda. Mahallalarni tashkil etishga homiylik qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi 1992 yil 12 sentyabrdagi hamda

²¹ Халқ сўзи газетаси. 1993 йил, сентябрь. // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг 1993 йил сентябрда бўлиб ўтган XII сессиясида қабул қилинган «Фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари тўғрисида»ги Қонун

mamlakat «Mahalla» xayriya jamg`armasiga mablag` ajratish to`g`risidagi 1992 yil 8 oktyabrdagi farmonlari katta siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo`ldi. Bu farmonlar mahalla qo`mitalarining o`z hududlarida istiqomat qiluvchi kam ta`minlangan oilalarga, nogironlarga, yolg`iz keksalarga moddiy yordam berish hamda aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasida keng miqyosli ishlarga katta ko`mak berdi.

Hukumat mahallalarga dastlab byudjet hisobidan 25 million so`m mablag` ajratdi. Joylarda mahallalar rolini oshirish, ular faoliyatini takomillashtirish uchun qulay imkoniyatlar yaratildi.

Mamlakatda mahalla qo`mita raislari hamda kotiblariga oylik ish haqi belgilandi. Qisqa vaqtda bu maqsadlarga mahalliy byudjetdan 10 million so`mga yaqin mablag` ajratildi.

Mamlakatimizda o`zini-o`zi boshqarish organlarini tashkil etishga katta e`tibor berildi. 1994 yil oxirlarigacha respublikada 12,4 ming o`zini-o`zi boshqarish organlari-mahalla qo`mitalari shakllantirildi. Ular o`z faoliyatlarida O`zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, o`zlari haqidagi Nizomga, mahalliy hokimiyatning mahalla fuqarolarining yig`ilishi haqidagi qarorlariga amal qilib ish yuritdilar.

Bu borada Chilonzor tumani hokimligi va xalq deputatlari tuman Kengashi ibratli ishlarni amalga oshirdi. Ular mahalla ahlining ko`p asrlik tajribalaridan va eng odilona boshqaruv usulidan samarali foydalanish maqsadida ko`p qavatli uylar joylashgan mavzelarni ham mahallalarga aylantirishga qaror qildilar. Tuman hududida avvaldan mavjud bo`lgan 19 ta mahallalar qatoriga bir qator turar joylarda yangiddan tashkil etilgan 25 ta mahalla ko`shildi. Ularning soni 44 taga etdi. Ayni paytda bu erlarda keng miqyosli ijtimoiy-siyosiy, ma`naviy-axloqiy, madaniy tadbirlar amalga oshirildi. Bular aholining o`zini-o`zi boshqarishdagi ishtirokini yanada kengaytirmokda.

Mustaqil O`zbekistonning viloyat va shaharlari hududlarida o`zini-o`zi boshqarish organlari bo`lgan mahallalar soni, ularning aholi o`rtasidagi roli ortib borishi respublikada ijtimoiy hayotning yanada demokratlashib borayotganini ko`rsatadi.

Keyinga yillarda yangadan qaddini ko'tarayotgan mahallalar hayotida tub o'zgarishlar yuz berdi. Buni 1996 yil may-iyun oylarida O'zbekistonda bo'lib o'tgan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga o'tkazilgan saylovlar yaqqol ko'rsatdi.

Saylovni puxta tayyorlash maqsadida Oliy Majlis Rayosati 1996 yil 13 mart quni fuqarolar yig'inlari raislari va ularning maslahatchilari saylovini o'tkazish masalasini maxsus muhokama qildi va shu asosda zarur tashkilotchilik ishlari olib borildi. Fuqarolar yig'inlari va ularning raislari saylovini o'tkazish haqidaga qonun matni 4 ming nusxa atrofida ko'paytirilib Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklariga etkazib berildi. Shuningdek, bu tadbirni uyushqoqlik bilan o'tkazishga doir tavsiyanomalar ishlab chiqildi. Ular «Mahalla» gazetasida e'lon qilindi.

Viloyat, shahar va tumanlarda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish yig'inlari raislari, ularning maslahatchilari saylovini o'tkazishga doir amaliy seminarlar o'tkazildi. Ushbu tadbirlarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari, viloyat hokimlari o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kotibiyati mas'ul xodimlari ishtirok etdilar.

Seminar-kengashlarda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari markaziy va mahalliy hokimiyat vakillik organlarining ishonchli yordamchisi tariqasida o'zini qo'rsatgani, jamiyatda fuqarolik totuvligini mustahkamlashga ko'maklashayotgani alohida ta'kidlandi. Mahalla rahbariyatining kam daromadli oilalarga va muhtoj kishilarga ko'rsatayotgan yordami, hududlarni obodonlashtirish yuzasidan amalga oshirayotgan keng miqyosli ishlari jamoatchilikda yaxshi fikr uyg'otdi.

Saylovga tayyorgarlik ko'rish Toshkent, Samarqand, Kashqadaryo, Namangan, Surxondaryo viloyatlarida yaxshi o'tkazildi. Hammasi bo'lib mamlakatda 6 ming 955 fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va 60 mingdan ortiq rais maslahatchisi saylandi. Qishloq, ovul va shaharlarning va shaharlardagi mahallalar yig'inlari raislarining 84 foizdan ortiga shu lavozimiga ikkinchi

muddatga saylandi, bu ko`rsatkich maslahatchilar orasida 65 foizdan ortiqrog`ini tashkil qildi.

O`zini-o`zi boshqarish organlari rahbarlarining umumiy ma`lumot darajasi ancha oshdi. Fuqarolarning barcha qishloqlar va ovullarda 1436 ta, shaharlarda-117 ta, mahallalarda-5402 ta, shu jumladan, qishloq mahallalarida 3305 ta o`zini-o`zi boshqarish organi bo`lib, ularning raislari jamoatchilik asosida ish olib bora boshladilar.

Qonun chiqaruvchi hokimiyatning takomillashtirilishi amalga oshirila boshlandi. Prezident Islom Karimov «O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li» asarida yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishini quyidagicha ta`riflaydi: «Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etish, jamiyatning siyosiy tizimini tubdan yaxshilash, respublika hokimiyati bilan mahalliy hokimiyatning vakolatlari va vazifalarini aniq belgilab qo`yish, adolatli va insonparvar qonunchilikni vujudga keltirish lozim bo`ladi»²².

O`zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyat - Oliy Majlis, ijro etuvchi hokimiyat - Vazirlar Mahkamasi, sud hokimiyati - Konstitutsiyaviy Sud, O`zbekiston Respublikasining Oliy Sudi va Oliy xo`jalik Sudi, Qoraqalpog`iston Respublikasining Oliy Sudi va Oliy xo`jalik Sudi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shahar sudlari va xo`jalik sudlaridan iborat.

O`zbekistonda demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida davlat hokimiyati organlari ichida qonun chiqaruvchi oliy davlat vakillik organi - Oliy Majlisning o`rni va ahamiyati kattadir. O`tish davrining mashaqqatli bosqichlarida respublika siyosiy hayotini yangilash va demokratlashtirish jarayonida Oliy Majlis o`zining salmoqli hissasini ko`shib kelmoqda.

²² Каримов И.А. «Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқоралик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари». –Т., «Ўзбекистон» 2002.

1993 yil 28 dekabrda bo`lib o`tgán Respublika Oliy Kengashining XIV sessiyasida «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to`g`risida»<sup>23</sup> va 1994 yil 22 sentyabrda bo`lib o`tgán XVI sessiyada «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to`g`risida»²⁴ qonunlar qabul qilindi. Bular qonunlar Oliy Majlisning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ularda O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hududiy saylov okruglari bo`yicha ko`ppartiyaviylik asosida besh yil muddatga saylanadigan 250 nafar deputatdan (O`zbekiston SSRning 1978 yildagi Konstitutsiyasiga binoan o`n ikkinchi chaqiriq Respublika Oliy Soveti deputatlarining soni 500 kishidan iborat edi) iborat bo`ladi, deb belgilab qo`yildi. Ayni paytda mazkur qonunlarda Oliy Kengash - Oliy Majlis deb nomlash asosida tub islohotlarni qonunchilik sohasida amalga oshirish zaruriyati kun tartibiga qo`yiladi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1994 yil sentyabrda bo`lib o`tgán XVI sessiyasi 1994 yil 25 dekabr` kuni Oliy Majlisga, viloyat, shahar va tuman kengashlariga saylovlar o`tkazishga qaror qildi. 1994 yil 25 dekabr` hamma joyda saylovlar qonun talablariga muvofiq umumiy, teng, to`g`ridan to`g`ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo`li bilan o`tdi. Nomzodlardan birontasi ham etarli ovoz ololmagan saylov okruglarida 1995 yil 8 va 25 yanvar` kunlari takroriy saylovlar bo`ldi. Uch bosqichda bo`lib o`tgán saylov yakunlariga binoan 250 nafar deputatdan iborat tarkibdagi parlament shakllantirildi. Saylov ko`p partiyaviylik asosida o`tkazildi. Shu tariqa, mamlakatimizda ilk bor yangi parlamentga bo`lgan saylovlar muvaffaqiyatli yakunlandi. Oliy Majlisni demokratik yo`l bilan shakllantirishning mamlakatimiz tarixidagi ilk tajribasi bo`ldi.

1995 yil 23 - 24 fevral` kunlari yangi saylangan birinchi chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining I sessiyasi bo`lib o`tdi. Sessiyada I.A.Karimov «O`zbekistonning siyosiy - ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining

²³ Халқ сўзи газетаси. 1993 йил, 30 декабрь // 1993 йил 28 декабрда бўлиб ўтган Республика Олий Кенгашининг XIV сессиясида «Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига сайловлар тўғрисида»ги қонун.

²⁴ Халқ сўзи газетаси. 1994 йил, 24 сентябрь. // 1994 йил 22 сентябрда бўлиб ўтган XVI сессияда «Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси тўғрисида»ги қонун.

asosiy tamoyillari» to`g`risida keng qamrovli ma`ruza qildi: «Vakillik xokimiyatini vujudga keltirishning jahondagi eng demokratik tizimlaridan biri tashkil etildi. O`zbekiston Parlamenti - Oliy Majlis ilk marta ko`ppartiyaviylik asosida saylandi», - dedi Prezident Islom Karimov.

Ushbu sessiyada parlamentchilikning demokratak asoslarini yanada rivojlantirishga e`tibor berilib, rahbariyat kengaytirilib rais va to`rt kishidan iborat rais o`rinbosarlari saylandi. E.X.Xalilov yakdillik bilan Oliy Majlis raisi, B.I.Bugrov, B.A.Shodieva, A.Q.Qosimovlar ham bir ovozdan rais o`rinbosarlari qilib saylandilar.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatga respublikaning har bir hududidan 6 nafardan, jami 84 senator saylandi. Konstitutsiyaning 77 - moddasiga muvofiq, Senatning 16 nafar a`zosi fan, san`at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo`lgan hamda alohida xizmat ko`rsatgan eng obro`li fuqarolar orasidan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlandi. Jami bo`lib, Senat 100 ta senatoridan iborat bo`ladi. Senatning Raisi qilib Murod Sharifxo`jaev saylandi.

Milliy parlamentarizm rivoj topishining uchinchi davri Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning 2005 yil 28 yanvardagi qo`shma majlisidan boshlanib, bunda yangi ikki palatali Oliy Majlis deputatlari va senatorlari amalda o`z ishlariga kirishdilar.

2009 yil 27 dekabr` va 2010 yil 10 yanvar` kunlari O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar bo`lib o`tdi.

2010 yilning 20 - 22 yanvarida O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining a`zolari saylandi. Senatning Raisi qilib Ilgizar Sobirov saylandi.

Shu yilning 22 yanvarida O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Spikeri qilib Dilorom Toshmuhamedova saylandi. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining o`rinbosarlari qilib Baxtiyor Yoqubov (O`zbekiston Liberal - demokratik

partiyasi fraktsiyasining rahbari), Ulug`bek Vafoev (O`zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraktsiyasining rahbari), Ulug`bek Muhammadiev (O`zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraktsiyasining rahbari), Ismoil Saifnazarov (O`zbekiston «Adolat» sotsial - demokratik partiyasi fraktsiyasining rahbari), Boriy Alixonov (O`zbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlar guruhi rahbari) saylandi²⁵.

Ijro hokimiyatining rivojlanishi ko`zga tashlana boshladi. Istiqlol yillarida davlat boshqaruv hokimiyati tubdan isloh qilindi. Avvalo, sobiq Ittifoq davrida faoliyat yuritib kelgan O`zbekiston davlat hokimiyatining ijro qiluvchi va boshqaruvchi oliy organi - Ministrlar Sovetining maqomi tubdan o`zgartirildi. 1990 yil 24 martda O`zbekistonda prezidentlik lavozimi ta`sis etilgandan keyin hayotning o`zi ijro etuvchi hokimiyat maqomini o`zgartirishni talab qildi. 1990 yil 15 noyabrda O`zbekiston Prezidentining «O`zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining tarkibini tasdiqlash to`g`risida» Farmoni chiqdi. Unga muvofiq ravishda O`zbekiston Prezidenti huzurida Vazirlar Mahkamasi tuzildi, Prezident uning Raisi bo`ldi. Respublikada vitse - Prezident lavozimi ta`sis etilib, uning zimmasiga Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qilish va uning ishini uyushtirish vazifasi yuklandi.

1992 yil 4 yanvarda Vitse - Prezident lavozimi tugatildi va O`zbekiston Respublikasining Bosh vaziri lavozimi ta`sis etildi. Bosh vazir zimmasiga Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qilish, uning ishini tashkil etish vazifasi yuklandi.

O`zbekistonda davlat ijroiya hokimiyatini takomillashtirishda 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muhim omil bo`ldi. Konstitutsiyasining XX - bobida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining konstitutsiyaviy - huquqiy maqomi, uning tashkil etilishi, faoliyatining asosiy yo`nalishlari va vakolatlari belgilab qo`yildi.

²⁵ Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги қошида «Ўзбекистоннинг янги тарихи» Жамоатчилик кенгаши фонди материалларидан фойдаланилди.

Konstitutsiyaning 89 - moddasiga muvofiq «O`zbekiston Respublikasining Prezidenti Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi», - deb belgilandi.

Vazirlar Mahkamasi o`z faoliyatini O`zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 mayda qabul kilingan «O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to`g`risida»gi (yangi tahriri 2003 yil 29 avgust) Qonuni asosida olib boradi. Mazkur qonunning 1 - moddasiga ko`ra, «Vazirlar Mahkamasi - O`zbekiston Respublikasining Hukumati - iqtisodiyot, ijtimoiy va ma`naviy sohalarining samarali faoliyat ko`rsatishiga, konunlar ijro etilishiga, Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, karorlari va farmoyishlari bajarilishiga rahbarlikni ta`minlovchi O`zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi».

Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etish tartibi O`zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 14 fevraldagi 62-son qarori bilan tasdiqlangan Reglamentida yanada rivojlantirilgan va mazmunan boyitilgan. Unga ko`ra Vazirlar Mahkamasining ishi choraklik rejalarga muvofiq olib boriladi. Vazirlar Mahkamasining majlislari yilning har choragida kamida 1 marta o`tkaziladi. Vazirlar Mahkamasining doimiy organi sifatida Bosh vazir va uning o`rinbosarlaridan iborat tarkibdagi Vazirlar Mahkamasining Rayosati faoliyat ko`rsatadi.

O`zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida Vazirlar Mahkamasining tarkibi tobora takomillashib, qisqartirib borildi. Agar 1990 yil 30 martda Respublika ijroiya hokimiyati 41 kishidan iborat etib tuzilgan bo`lsa, 1995 yil 5 mayda Vazirlar Mahkamasi 35 kishidan iborat etib tuzildi. 2000 yil 11 fevralda bo`lgan ikkinchi chaqiriq O`zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Prezident tavsiyasiga ko`ra Vazirlar Mahkamasi tarkibini 34 kishidan - Bosh vazir, Bosh vazirning birinchi o`rinbosari, 8 nafar Bosh vazir o`rinbosarlari, 14 nafar vazir va 9 nafar Davlat qo`mitalari raislaridan iborat etib tasdiqladi²⁶.

²⁶ Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги қошида «Ўзбекистоннинг янги тарихи» Жамоатчилик кенгаши фонди материалларидан фойдаланилди.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari nomzodlarini avval Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatda ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining boshqa a'zolari esa Bosh vazirning taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. Bu holat mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlarni yanada chuqurlashtirishga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida quyidagi asosiy konstitutsiyaviy tamoyillarga asoslanadi:

- ✓ kollegiallik;
- ✓ demokratiya;
- ✓ qonuniylik;
- ✓ O'zbekistonda yashovchi barcha millatlar va elatlarning manfaatlarini hisobga olish.

O'zini-o'zi boshqarishning huquqiy asoslari yaratila boshlandi. O'zbekiston davlat mustaqilligi qo'lga kiritilgach, mahallaga munosabat tubdan o'zgardi, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish tizimi tubdan isloh qilindi. Bu borada fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tizimini davlat hokimiyati tizimidan ajratish tomon yo'l tutildi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 105-moddasida «Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini-o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi», deb belgilab qo'yildi²⁷.

1993-yil 2-sentabrda «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»²⁸ O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Unga binoan, qishloq, posyolka (shaharcha)larda davlat hokimiyati vakillik organlari - qishloq, posyolka sovetlari tuzilmaydigan bo'ldi, ularning o'rniga o'zini-o'zi

²⁷ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 2012

²⁸ Халқ сўзи газетаси. 1993 йил, 4 сентябрь. // 1993-йил 2-сентябрда «Фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари тўғрисида»ги қонун

boshqarish organlari - mahalla qo'mitalari tuzildi. Shunday qilib, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari mahalliy hokimiyat tizimidan ajratildi. Biroq ular bir-biridan mutlaqo ajratilgan holda faoliyat ko'rsatmaydi, ularning bog'liq tomonlari mavjud. Ular o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslari «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunda belgilab qo'yilgan. Har ikkalasi ham mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qiladi.

Mahallalarga davlat homiyligi amalga oshirila boshlandi. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini shakllantirishga davlat homiylik qilmoqda. Bu borada O'zbekiston Prezidentining Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasini tuzish to'g'risida 1992-yil 12-sentabrdagi hamda «Mahalla» xayriya jamg'armasiga mablag' ajratish to'g'risida 1992-yil 8-oktabrdagi farmonlari katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ldi. Davlat homiyligida Respublika «Mahalla» jamg'armasi, viloyat, shahar, tuman «Mahalla» jamg'armalari tashkil etildi. Mahallalar faoliyatini yurituvchi «Mahalla» gazetasi (1994-yil) ta'sis etildi. Davlatning «Mahalla» jamg'armalari orqali ko'rsatayotgan homiyligi mahalla qo'mitalarining o'z hududlarida istiqomat qiluvchi kam ta'minlangan oilalarga, nogironlarga, yolg'iz keksalarga moddiy yordam berish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasidagi ishlariga katta ko'mak bo'lmoqda²⁹.

Hukumat mahallalarga dastlab davlat budjeti hisobidan 25 million so'm mablag' ajratdi. Viloyat, tuman, shahar hokimliklari tomonidan mahallalar rolini oshirish, ular faoliyatini takomillashtirish uchun qulay imkoniyatlar yaratildi. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yo'lga qo'yish uchun tegishli binolar ajratildi, ularni jihozlashga ko'maklashdi. Mahalla oqsoqoli va kotiblariga oylik ish haqi belgilandi. Bu maqsadlar uchun hokimiyatlar mahalliy budjetdan zarur mablag'lar ajratdilar.

1994-yilgi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, butun respublika hududida 12 mingdan ortiq mahalla shakllantirildi. 1994-yilda barcha mahallalarda fuqarolar yig'ini bo'lib, mahalla oqsoqollari va masul kotiblar saylandilar.

²⁹ Жўраев Н. Ўзбекистон тарихи. Учунчи китоб. Т., Шарк. 2011. 137 бет

O`zini-o`zi boshqarish organlarining vakolatlari va faoliyatiga e`tibor qaratildi. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining vakolatlari, vazifalari O`zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida»gi Qonunda aniq belgilab qo`yilgan.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining vazifalari:

- fuqarolarga jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda qatnashish huquqini amalga oshirishda ko`maklashish;

- o`z hududlarida ijtimoiy va xo`jalik vazifalarini hal qilish, ommaviy-madaniy tadbirlarni o`tkazish;

- davlat hokimiyati organlariga O`zbekiston Respublikasi qonunlarini, Prezident va hukumat hujjatlarini, xalq deputatlari kengashlari va hokimliklarning qarorlarini bajarishda yordamlashish maqsadida fuqarolarni birlashtirish.

O`zbekistonda fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarini takomillashtirish, zarur holatlarda yiriklashtirish tadbirlari ko`rilmoqda. Agar 1994-yilda 12 mingdan ortiq o`zini-o`zi boshqarish organlari shakllantirilgan bo`lsa, ularning soni 2001-yilda 7847 tani tashkil etdi. 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan «Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida»gi yangi tahrirdagi qonunda ularning vakolatlari va huquqi kengaytirildi. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlariga, shuningdek, mahalla fuqarolar yig`iniga: aholi manfaatlarini ifodalash va uning nomidan qarorlar qabul qilish; qonun hujjatlarining, shuningdek, o`z qarorlarining ijro etilishi bo`yicha jamoatchilik nazoratini amalga oshirish; atrof-muhitni muhofaza qilish va obodonlashtirish yuzasidan o`z hududida joylashgan korxona, muassasa va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitish huquqlari berildi.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlariga saylovlar aholining ijtimoiy faolligi, siyosiy ongi tobora yuksalib borayotganligidan guvohlik beradi. 1998-yil noyabr-dekabr oylarida bo`lib o`tgan saylovlar bilan bog`liq bo`lgan fuqarolar yig`inlarida 8,4 mln kishi yoki respublikadagi katta yoshdagi aholining 70 foizi ishtirok etdi. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlariga

7574 nafar rais va 71034 nafar maslahatchi saylandi. O`zini-o`zi boshqarish organlari rahbarlarining ma`lumot darajasi ham oshib bormoqda. 1998-yilda saylangan rais (oqsoqol)larning 65,5 foizi oliy ma`lumotli mutaxassislar ekanligi buning guvohidir.

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 2003-yil «Obod mahalla yili» deb e`lon qilindi va «Obod mahalla yili» dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo`yicha respublika komissiyasi tuzildi. Mazkur komissiya yil davomida amalga oshirilishi zarur bo`lgan tadbirlarning dasturini ishlab chiqdi. 2003-yil 7-fevralda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Obod mahalla yili» dasturi to`g`risida qarori e`lon qilindi.

Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishiga ahamiyat berildi. Demokratik saylov tizimining yaratilishi. Demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri bu inson, uning huquqi va erkinligi masalasi bo`lib, u davlat va jamiyatning qay darajada rivojlanganini ko`rsatuvchi mezondir. Shundan kelib chiqib, O`zbekiston davlat mustaqilligini qo`lga qiritgandan so`ng o`tgan qisqa davr ichida insonning huquq va erkinliklari to`g`risida milliy qonunchilik tizimini shakllantirishga kirishdi.

Bunda O`zbekistonning inson huquqlari bo`yicha xalqaro xuquqiy normalarni tan olishi va ularga qo`shilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, O`zbekistonda inson huquqlari va erkinliklariga doir Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan xalqaro hujjatlarni tan oldi va ularga sadoqat bilan amal qilinmoqda. Bunga quyidagilarni aytish mumkin:

✓ 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi»ga 1991 yil 30 sentyabrda qo`shilgan. Ushbu Deklaratsiya mustaqil Uzbekistan Respublikasi imzolagan birinchi xalqaro hujjatdir.

✓ 1966 yil 16 dekabrda qabul qilingan «Inson huquqlari to`g`risida Paktlar»ga 1995 yil 31 avgustda qo`shilgan. «Inson huquqlari to`g`risida Paktlar» 1966 yil 19 dekabrda qabul qilingan «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to`g`risida Xalqaro Pakt» va «Fuqarolik va siyosiy huquqlar

to'g'risidagi Xalqaro Pakt»dan iborat. Bu xalqaro hujjatlar ham O'zbekiston tomonidan tan oldi.

Insonning shaxsiy huquq va erkinliklari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Fuqarolik kodeksi» (1995 yil 21 dekabr), «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida» (1994 yil 6 may), «Fuqarolar muhofazasi to'g'risida» (2000 yil 26 may), «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» (1998 yil 1 may kuni yangi tahrirda qabul qilingan) va boshqa qonunlar bilan kafolatlangan.

Siyosiy huquqlar, ularning kafolatlariga e'tibor kuchaytirildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida fuqarolarning siyosiy huquqlari ham mustahkamlangan. Ular quyidagilardan iborat³⁰:

- ✓ davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda qatnashish;
- ✓ o'z ijtimoiy faolliklarini mitinglar, namoyishlar va yig'ilishlar shaklida amalga oshirish;
- ✓ kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga, jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish;
- ✓ vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish.

Fuqarolarning siyosiy huquqlari Konstitutsiya, «Jamoat tashkilotlari to'g'risida», «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida», «Siyosiy partiyalar to'g'risida» va boshqa qonunlar bilan himoya qilinadi³¹.

Shu bilan birga, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar ham alohida belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida respublika fuqarolarining iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari mustahkamlanib qo'yilgan:

- ✓ uy - joyga ega bo'lish;
- ✓ mulkdor bo'lish va undan erkin foydalanish;
- ✓ mehnat qilish, erkin kasb tanlash, ishsizlikdan himoyalaniish;
- ✓ yollanib ishlaganda dam olish;

³⁰ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 2012

³¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 2012

✓ qariganda, mehnat qobiliyatini yo`qotganda, boquvchisidan mahrum bo`lganda ijtimoiy ta`minot olish;

✓ malakali tibbiy xizmatdan foydalanish;

✓ bilim olish;

✓ ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish.

Fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari O`zbekiston Respublikasining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalaridagi qonunlari bilan kafolatlangan. Kafolat deganda, fuqarolarga belgilab qo`yilgan huquq va erkinliklarni amalga oshirishni ta`minlaydigan vositalar, usullar va shart - sharoitlar tushuniladi. Zarur bo`lgan hollarda inson huquqlari sudga himoya qilinadi yoki tiklanadi. 1995 yil 30 avgust qabul qilingan «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti - harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to`g`risida»gi Qonun ana shu maqsadlarga xizmat qilmoqda.

Inson huquqlarini himoya qiluvchi institutlar tashkil etildi. O`zbekistonda inson huquqlarini himoya qiluvchi tizimga Oliy Majlisning Inson huquqlari bo`yicha vakili (ombudsman) va Inson huquqlari bo`yicha Milliy markaz kiradi.

Yuqorida takidlab o`tilganidek, 1995 yil 23 fevralda birinchi chaqiriq Oliy Majlisning birinchi sessiyasida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo`yicha vakili (ombudsman) lavozimi ta`sis etiladi va bu lavozimga Rashidova Sayyora saylandi. Dastlab ombudsman (shvedcha, ombudsman - biron kishi manfaatlarining vakili) xalqaro amaliyotni o`rganish asosida ishlab chiqilgan va Oliy Majlis Rayosati tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat olib bordi.

O`zbekistonda ombudsman faoliyatining huquqiy asoslari 1997 yil 24 aprelda Oliy Majlisning VIII sessiyasida qabul qilingan «Oliy Majlisning Inson huquqlari vakili (ombudsman) to`g`risida»gi qonunda belgilab berildi. Mazkur qonunga ko`ra, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo`yicha vakili (ombudsman) - mansabdor shaxs bo`lib, unga O`zbekistonda davlat organlari, fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar tomonidan inson huqukdari to`g`risidagi amaldagi qonun hujjatlariga rioya etilishining samaradorligi ustidan parlament

nazoratini ta'minlash vakolatlari berilgan. Vakil o'z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarga tobe bo'lmagan tarzda amalga oshiradi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisob beradi. Vakil BMTning inson huquqlari bo'yicha markazi, eHXTning demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi bilan yaqin hamkorlikda faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, hozirda 1995 yilda Oliy Majlis vakili huzurida tuzilgan Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi bo'yicha maxsus komissiyasi faoliyat yuritmoqda³².

O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirli vositasini barpo etish, xalqaro va huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va barcha respublika aholisining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida 1996 yil 31 oktyabr O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazini tuzish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Farmonga binoan O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazi tashkil etildi.

Saylov tizimi demokratik asosda qayta tuzildi. O'zbekistonda demokratik jamiyatga xos saylov tizimi barpo etilishda xalqaro huquq andozalari va talablariga, ilg'or chet el tajribasiga mos saylov qonunchiligi yaratilishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Dastlab saylov tizimini yo'lga qo'yish maqsadida «O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida» va «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida» (1991 yil 18 noyabr) Qonunlari qabul qilindi. Saylovlar haqida, saylov o'tkazish tartiblari to'g'risida bir qator qonunlar qabul qilindi. Jumladan, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi (1993 yil 28 dekabr), «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi (1994 yil 5 may) va «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi (1994 yil 5 may) Qonunlar shular jumlasidandir.

³² Жумабаев Р. Давлат ва жамият: демократлаштириш йўлида. Т., Шарк. 7 бет

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarda 18 yoshga to'lgan fuqarolarning saylash huquqiga ega ekanligi, O'zbekiston Prezidenti saylovi, Oliy Majlis saylovi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari saylovi umumiy, teng, to'g'ridan - to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazilishi mustahkamlab qo'yilgan.

Har bir fuqaro - saylovchi bir ovozga ega. 35 yoshdan kam bo'lmagan fuqaro O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 25 yoshga to'lganlar Oliy Majlisga, 21 yoshga to'lganlar viloyat, tuman va shahar Kengashlariga deputat etib saylanish huquqiga ega. Fuqaro bir vaqtning o'zida ikkidan ortiq vakillik organlarining deputati bo'lishi mumkin emas.

II-Bob. O`zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy tizimdagi o`zgarishlar.

2.1. Hokimiyatdagi o`zgarishlarning bozor islohotlari kontseptsiyasi bilan mutanosib olib borilishi.

Mustaqillikka erishilgan vaqtda O`zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol o`ta murakkab edi. Aholining turmush darajasi bo`yicha O`zbekiston sobiq SSSR tarkibida oxirgi o`rinlardan birida turar edi; aholining 60%dan ko`proq asosiy qismi yashaydigan qishloq joylarida industrial rivojlanishning ahamiyatli darajada orta qolishi sharoitida iqtisodiyotda yirik sanoat shaharlaridagi gigant korxona-monopolistlarning haddan tashqari kontsentratsiyasi va ixtisoslashuvi hukm surardi; iqtisodiyotda ma`muriy tarzdgagi narxni tashkil etish va resurslarni taqsimlash bilan bog`liq kuchli nomutanosibliklar kuzatilar edi; mamlakat o`z davlatchiligining asoslarini yaratish zarurati oldida turardi; og`ir ekologik ahvol mavjud edi.

Ko`plab tarmoqlarda ataylab xomashyoni qazib olish va dastlabki qayta ishlash, yarim fabrikatlarni tayyorlash bosqichida uzilib qoluvchi tugallanmagan texnologik tsiklga ega ishlab chiqarishlar ustunlik qilar edi.

Respublikaning asosiy tarmoqlari kompleks tarzda emas, balki Rossiya hamda boshqa respublikalardagi ishlab chiqarishga resurslar va tayyor mahsulotlarni ko`p minglab kilometrlarga (ko`pincha noratsional, qarama-qarshi tarzda) etkazib berish orqali «bog`lab qo`yish» maqsadida rivojlantirilgan edi.

70 yildan ko`proq vaqt hukm surgan ma`muriy-buyruqbozlik tizimiga asoslangan sobiq Ittifoqdagi noto`g`ri, samarasiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosat 80-yillarning oxiriga kelib barcha ittifoqdosh respublikalar qatorida O`zbekiston aholisining ham yashash sharoitlarini og`irlashtirib, uni ko`plab muammolar iskanjasiga solib qo`ygan edi. Jumladan:

1) respublikada demografik vaziyatning murakkabligi. O`zbekistonda aholining o`sish sur`atlari Ittifoq sur`atlariga qaraganda uch barobardan ziyod yuqori bo`lganiga qaramay, uzoq yillar davomida sanoat va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ish joylarini ko`paytirish hamda aholining hayot ta`minoti

uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan mustahkamlab borilmadi. Bu esa odamlar turmush sharoitining yomonlashuvi, ishsizlar sonining ko'payishi, ijtimoiy mehnat unumdorligi va aholi daromadlarining kamayishi, pirovard natijada xalq farovonligining pasayishiga olib keldi;

2) respublika iqtisodiyotining biryoqlama, haddan tashqari nomaqbul ixtisoslashtirilishi natijasida qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda, sanoatda ham, asosan, xomashyoni birlamchi qayta ishlash tarmoqlari ustunlik qilib, tayyor mahsulot, avvalo xalq iste'moli mollari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning ulushi juda past edi;

3) ishlab chiqaruvchi kuchlar va, avvalo, sanoat ob'ektlari asosan stixiyali ravishda, aniqrog'i, har xil o'zboshimchalik, buyruqbozlik bilan qabul qilingan qarorlar asosida, ko'pincha ilm-fan vakillari, bilimli va obro'li mutaxassislarning tavsiyalari mutlaqo e'tiborga olinmay joylashtirildi;

4) respublikadagi ijtimoiy ahvolning, odamlarning ijtimoiy ta'minoti va ularni ijtimoiy himoya qilishning mutlaqo qoniqarsizligi. Ayniqsa, qishloq aholisining kanalizatsiya va vodoprovod bilan ta'minlanishi atigi 5 foizni, ichimlik suv bilan ta'minlanishi salkam 50 foizni, tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 17 foizni tashkil etar edi. Aholini uy-joy, sog'liqni saqlash, madaniyat, maishiy xizmat ob'ektlari, maktablar, bolalar bog'chalari va hokazolar bilan ta'minlash ishlarida siljishlar sezilmadi. Vaholanki, aholining ko'pchilik qismi qishloq joylarida istiqomat qilar edi³³.

O'zbekiston sobiq Ittifoq tarkibida uzoq yillar davomida hukm surgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi ta'sirida faqat xomashyo etkazib berishga asoslangan, qoloq va mo'rt iqtisodiyotga ega bo'lib, bu holat respublika aholisi daromadlari va turmush darajasiga ancha keskin ta'sir ko'rsatdi.

Bu davrda respublika barcha asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ham ancha orqada bo'lib, mamlakatda oxirgi o'rinlardan biriga tushib qoldi. Jumladan, aholi jon boshiga yalpi ijtimoiy

³³ Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги қошида «Ўзбекистоннинг янги тарихи» Жамоатчилик кенгаши фонди материалларидан фойдаланилди.

mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ittifoqdosh respublikalar orasida 12-o'rinni, daromad darajasi, asosiy turdagi mahsulotlarni iste'mol qilish jihatidan eng oxirgi o'rinlardan birini egallab keldi. Aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan 2 barobar, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo'yicha 2,5 barobar, sanoatdagi mehnat unumdorligi jihatidan 2,5 barobar, qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi jihatidan esa 2 barobar, aholining o'rta hisobda go'sht mahsulotlari, tuxum, sut va sut mahsulotlari iste'moli bo'yicha 2 barobar orqada qolgan. O'sha davrda kun kechirish uchun oyiga o'rta hisobda kamida 85 so'm zarur bo'lgani holda, 75 so'mdan kamroq yalpi daromad oladigan aholining ulushi Ittifoq bo'yicha 12 foizdan sal ko'proq bo'lsa, O'zbekistonda 45 foizga etgan, ya'ni 8 million 800 ming kishini tashkil etgan. Bir millionga yaqin kishi ijtimoiy ishlab chiqarishda o'zining qo'lidan keladigan ishni topa olmagan, ya'ni ishsiz bo'lgan³⁴.

Bunday og'ir ahvolning vujudga kelish sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 30-yillarning boshlarida iqtisodiyotga rahbarlik qilishning ma'muriy-buyruqbozlik usullariga zo'r berilib, O'zbekistonni, uning ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirishga yaroqsiz yondashuvlarning tobora kuchayib borishi;

- respublikaga asosan xomashyo bazasi, Sobiq Markazdagi sanoat vazirliklari va idoralarining mo'may xomashyo manbai sifatida qarab kelinishi;

- o'lkaning mahalliy, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga ba'zan etarlicha, ba'zan mutlaqo baho berilmagani, ba'zan esa bu xususiyatlarning pisand ham qilinmagani;

- iqtisodiy va ijtimoiy sohani kompleks, jadal rivojlantirishning, umumittifoq mehnat taqsimotida O'zbekistonning mavqei va o'rnini o'zgartirishning muqobil yo'llari e'tiborga olinmagani.

Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan hozirgi zamon bozor iqtisodiyotiga o'tishning zarurligi iqtisodiy o'sish ekstensiv omillaridan foydalanish

³⁴ Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги қошида «Ўзбекистоннинг янги тарихи» Жамоатчилик кенгаши фонди материалларидан фойдаланилди.

imkoniyatlarining tugab borishi bilan notovar iqtisodiyotning amal qilish layoqatining pasayishi orqali ifodalanadi.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi ikkita ahamiyatli kamchilikka ega:

- 1) uning moslashuvchan emasligi, ro'y berayotgan o'zgarishlarga juda sekinlik bilan moslashib borishi;
- 2) xo'jalik yuritish tashabbuskorligini «yo'qotib yuborish» oqibatida samaradorlikning o'ta darajada pasayib ketganligi.

Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o'tish ko'plab mamlakatlarda umumiy tendentsiyaga ega. Bu jarayon iqtisodiyotni erkinlashtirish, chuqur institutsional (eng avvalo, mulkchilik munosabatlarida) o'zgarishlarni o'z ichiga oladi, biroq, bir vaqtning o'zida moliyaviy barqarorlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirilishini taqozo etadi.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimini o'zgartirish mazkur tizim asosining o'zgarishini hamda uni sifat jihatidan farq qiluvchi bozor tizimiga almashtirilishini anglatar ekan, bunday turdagi o'zgarishlarni tizimiy islohotlar deb atash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti - jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar majmuidir. Tarixan, bozor iqtisodiyotiga o'tish eng so'nggi navbatda «sotsialistik» mamlakatlar o'tmoqda. Xalqaro tajribada bozor iqtisodiyotiga o'tishning bir qancha modellari mavjud bo'lib, ularni umumlashtirib, bozor iqtisodiyotiga o'tishning uch turga yoki modelga bo'lishimiz mumkin:

1. G'arbiy evropa mamlakatlari va boshqa rivojlangan mamlakatlar yo'li.
2. Mustamlakachilikdan ozod bo'lib, mustaqil taraqqiyot yo'liga kirib rivojlanayotgan Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlarining yo'li.
3. Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi mamlakatlari, boshqacha aytganda, «sotsialistik» rivojlanish yo'lidan borgan va hozirda bozor iqtisodiyoti yo'lini tanlagan mamlakatlar yo'li.

Sobiq sotsialistik mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda davlatlashtirilgan, o'ta markazlashtirilgan va yagona bir markazdan boshqariluvchi iqtisodiyotdan - bozor iqtisodiyotiga o'tish zarurligi quyidagi

bosqichlarni amalga oshirishni taqozo etdi:

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning huquqiy asoslarini yaratish, ya'ni uni ta'minlovchi yuridik qonunlar tizimini yaratish.

2. Bozor infrastrukturasini shakllantirish. Bunda bozor iqtisodiyotiga xos aloqalarni o'rnatishga ko'mak beruvchi, ya'ni bozorga xizmat ko'rsatuvchi sohalarni, tashkilot, korxona va muassasalarni yaratish.

3. Mulkchilik va xo'jalik yuritish usullarini xususiylashtirish.

4. Narxlarni erkinlashtirish, narx ustidan davlat nazoratini minimal darajaga keltirish.

Prezidentimiz I.Karimov o'z rahbarlik faoliyatini boshlagan paytda respublikadagi ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning negizida uzoq yillar davomida hukm surib kelgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimining asoratli ta'siri yotishini, shunga ko'ra ularni hal etishning yagona to'g'ri yo'li - bu iqtisodiyotda bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich shakllantirib va rivojlantirib borish ekanini qat'iy belgilab berdi. Jumladan, ushbu jarayonning maqsadga muvofiq tarzda, samarali va eng muhimi, aholi turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda amalga oshishi uchun quyidagi tadbirlarga alohida e'tibor qaratdi:

- O'zbekiston sharoitida bozor mexanizmining mohiyati va mazmuniga sergaklik bilan va har tomonlama real baho berish, uning joriy etilishida vujudga kelishi mumkin bo'lgan murakkabliklar va noxush oqibatlarni ko'zda tutish, o'tish davri keskinliklarini yumshatishga yordam beradigan zarur mexanizmlarni oldindan yaratib qo'yish kerak;

- nonning chakana narxi, boshqa narxlardan ayri holda bir tomonlama oshirilishi g'alla bilan paxta, ulardan olinadigan mahsulotlar narxlarining ekvivalentligiga erishish yo'lidagi sa'y-harakatlarni, ko'zda tutilayotgan yoqilg'i, metall va texnika narxlarining oshirilishi esa paxtaga haq to'lashni ko'paytirish tartiblarini tamomila yo'qqa chiqaradi;

- respublika uchun katta ahamiyat kasb etuvchi boshlang'ich sharoitlarni hisobga olish va barobarlashtirish masalasiga chuqur e'tibor qaratish lozim;

- bozor iqtisodiyotiga o'tish kontseptsiyasi haqidagi SSSR hukumatining ma'ruzasida investitsiyalarni qisqartirish masalasining qo'yilishi xato yondashuvdir, chunki ishlab chiqarishning mavjud texnikaviy va strukturaviy darajasida (bu jihatdan ilg'or mamlakatlar darajasidan 15-20 yil va undan ko'proq orqada qolgan edi) bunday siyosat battar qoloqlikka olib boradi;

- maqsadli, tarkibiy siyosatni, kapital qurilishdagi ustun yo'nalishlarni, avvalo, tugallanmagan qurilishlarni keskin qisqartirish maqsadida tubdan qayta ko'rib chiqish zarur;

- aholi ijtimoiy himoyasining aniq va ta'sirchan mexanizmlari zarur;

- uy-joy qurilishiga alohida e'tibor berish lozim. Bunda yaqin besh yil ichida 67-68 million kvadrat metr uy-joyni foydalanishga topshirish, 6 milliondan ziyodroq kishining uy-joy sharoitini yaxshilash vazifasi qo'yilishi muhim ahamiyat kasb etadi;

- aholiga kommunal xizmatni keskin yaxshilash, jumladan, aholining markazlashtirilgan suv ta'minoti darajasini 52 foizdan 67 foizga etkazish, Orolbo'yi zonasida esa 1995 yilgacha butun aholini markazlashtirilgan suv ta'minotiga o'tkazish, qishloq aholi punktlarini gazlashtirish sur'atlarining ikki barobar ortishi ahamiyatlidir;

- respublikadagi ijtimoiy o'zgarishlarni hal etishga byudjet mablag'laridan tashqari vazirliklar, idoralar, korxona va tashkilotlarning o'z hissasini qo'shishini ta'minlash kerak.

- respublikada o'tish davridagi resurs va imkoniyatlardan samarali foydalanish, aholining ijtimoiy himoyasi, ayniqsa, kam ta'minlangan aholining ijtimoiy himoyasining ishonchli mexanizmi ishlab chiqilishi;

- respublikada mulkchilikning qanday shakllari bo'lishini aniqlab olish;

- ayrim davlat mulkidagi ishlab chiqarish ob'ektlarini mulkchilik va xo'jalik yuritishning boshqa shakllariga aylantirishni belgilab olish;

- iste'mol mollari, xalq hunarmandchiligi, xalq ijodiyoti mahsulotlari ishlab chiqaradigan, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat sohasidagi yoki yordamchi korxonalar, ikkilamchi resurslarni va ishlab chiqarish chiqindilarini

qayta ishlaydigan katta birlashmalarning ayrim buyurtmalarini bajaradigan korxonalarni kichik xususiy korxonalar ko`rinishida tashkil etishning qonuniy tartibini aniq belgilab qo`yish;

- yirik ishlab chiqarish komplekslari, shu jumladan, mamlakatning boshqa mintaqalaridagi komplekslar tomonidan mayda va o`rtacha korxonalar, filiallar va tsexlar tashkil etilishini rag`batlantirish;

- yordamchi ishlab chiqarish bo`linmalari tuzilishida ularning mehnat jamoalarini uy-joy va ijtimoiy, madaniy, maishiy ob`ektlar bilan to`la ta`minlash;

- qo`shma korxonalar tashkil etish ishini faollashtirish va boshqalar³⁵.

Ma`lumki, hozirda rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Yaponiya, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya, Rossiya)ning deyarli barchasi bozor iqtisodiyoti yo`lini tanlagan bo`lib, shu asosda iqtisodiy taraqqiyotini belgilab kelmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o`tish XX asrga xos bo`lgan umumjahon voqelikdir. Bozor iqtisodiyotiga o`tish kishilarning xohish-irodasi emas, balki ob`ektiv zaruratdir.

Bozor iqtisodiyoti deganda, tovar-pul munosabatlariga asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar, ya`ni bozor munosabatlari tamoyillari asosida boshqariladigan iqtisodiyot tushuniladi. Bozor iqtisodiyoti azaldan mavjud. U bir necha ming yillardan beri rivojlanib, turli iqtisodiy-ijtimoiy tizimlar doirasida saqlanib keladi. Bozor iqtisodiyotiga o`tish - bu shunchaki maqsad emas, balki iqtisodda bozor munosabatlarini shakllantirish, jamiyatni yangilash yo`lidir, ya`ni iqtisodiy faoliyat erkinligiga, mulchilikning xilma-xilligiga, narx erkinligiga, raqobat qurashiga, shaxsiy huquq va erkinliklarning qaror topishiga, daromadning cheklanmaganligiga erishish demakdir. Faqat bozor munosabatlari zaminidagina ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish, ko`plab sifatli mahsulotlar yaratish, ularga bo`lgan talabni qondirish, tejamli xo`jalik yuritish,

³⁵ Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги қошида «Ўзбекистоннинг янги тарихи» Жамоатчилик кенгаши фонди материалларидан фойдаланилди.

to'kinchilik yaratib, xalqning farovon turmushini ta'minlash, halol va samarali mehnatni qadrlash, adolat o'rnatish mumkin.

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, bozor iqtisodiyotiga revolyutsion yo'l bilan, ya'ni jadal usulda yoki evolyutsion yo'l bilan, ya'ni bosqichma-bosqich o'tish mumkin. Birinchi holda, tub islohotlarni o'tkazish, avvalgi tizimni va tarkib topgan iqtisodiy munosabatlarni birdagina va batamom sindirish talab etilib, «karaxt qilib davolash» usuli («shokovaya terapiya») deb ataladi. Eski iqtisodiy munosabatlarni bosqichma-bosqich yangi bozor munosabatlariga aylantira borib, samarali bozor iqtisodiyotini shikastsiz vujudga keltirish mumkin. Islohotlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, evolyutsion yo'l kamroq ijtimoiy larzalarga olib keladi, ancha izchil va muqarrardir.

O'tish davrida bozor iqtisodiyotini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- 1) iqtisodiyotni erkinlashtirish;
- 2) iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish va raqobat muhitini yaratish;
- 3) institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish;
- 4) tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish;
- 5) makroiqtisodiy, asosan, moliyaviy barqarorlashtirish;
- 6) aholini ijtimoiy himoyalashning bozor xo'jaligiga mos bo'lgan tizimini shakllantirish.

Shunday qilib, O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan keyin, o'ziga xos va o'ziga mos ravishda bozor munosabatlariga o'tish bo'yicha kontseptsiya yaratildi. Bu esa o'z navbatida davlat hokimiyati strukturasida ham o'zgarishlar olib borilishiga sabab bo'ldi.

Chunki ijtimoiy-iqtisodiy siyosat davlat boshqaruvi kabi masalalar bilan uyg'un ravishda olib boriladi, albatta.

2.2. Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasidagi davlat boshqaruvidagi o'zgarishlar.

XX asr boshlarida Markaziy Osiyo xalqlari siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida katta o'zgarishlar yuz berdi. 1924 yili Turkiston ASSRning Amudaryo viloyati va Xiva xonligining Xo'jayli hamda Qo'ng'iro't tumanlari hududida Qozog'iston ASSR tarkibida Qoraqalpog'iston Avtonom viloyati tashkil etildi. U 1930 yildan RSFSR tarkibiga kirdi. 1932 yilda Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasiga aylantirildi.

Qoraqalpog'iston tarixida 1936 yil muhim siyosiy voqealar yili sifatida abadiy qoldi. Chunki shu yili o'z taqdirini O'zbekiston SSR tarkibiga kirish bilan belgiladi va tanlagan yo'lining istiqbolli ekanligini ko'rsata bildi³⁶.

O'zbekiston o'zining davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasi mustaqil O'zbekiston tarkibidagi suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi maqomini oldi. Bu tabiiy hodisa edi. Chunki asrlar mobaynida qoraqalpoqlar bilan o'zbek xalqi o'rtasida do'stlik, qardoshlik munosabatlari qaror topgan, turmush tarzlari va dunyoqarashlarida mushtaraklik vujudga kelgan edi. Orolbo'yi kengliklarida qadimiy o'zbek va qoraqalpoq ajdodlari birgalikda yashab, mehnat qilishdi. O'zlarining taraqqiyot yo'llarini bosib o'tishdi.

Qadimiy turkiylarning ikki qavmi yillar mobaynida haqiqiy og'a-inichilik fazilatlarini ko'rsatdilar, o'zaro munosabatlarni chuqurlashtirdilar. Bu ikki qavm ma'naviy-ruhiy yaqinligini belgilaydigan asosiy omil va madaniyatlar mushtarakligi, ularning o'zaro yaqinligi edi. Darhaqiqat, tillar yaqinligi dillar yaqinligiga olib keldi. Madaniyatlar bir-birini boyitdi. Qadimiy madaniyat namunalari, umummilliy qadriyatlar, jondoshu qondosh bo'lgan har ikki millat uchun tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan an'analar shakllandi. Shu asosda iqtisodiy hamkorlik, yagona iqtisodiy makon vujudga keldi.

O'zbekiston tarkibida o'tgan 60 yillik tarix qoraqalpoq xalqi uchun jiddiy o'zgarishlar davri bo'ldi. Madaniy va ma'naviy ravnaq, san'at va adabiyotdagi

³⁶ Жўраев Н. Ўзбекистон тарихи. Учунчи китоб. Т., Шарк. 2011. 159 бет

yuksalish, qishloq xo`jaligi va sanoat ishlab chiqarishdagi katta yutuqlar bevosita qardosh o`zbek xalqining beg`araz yordami, ko`magi bilan dunyoga keldi.

Biroq yaqin qo`shnichilik, qardoshlik va do`stlik har ikki xalq uchun qanchalik qimmatli bo`lmasin, yaqin qo`shnichilik singari yuksak insoniy fazilatlar asrlar sinovidan o`tib, og`ir kunlarda eng ishonchli qurol bo`lib xizmat qildi. Sovet hokimiyati yillaridagi ma`muriy-buyruqbozlik usuli, sohta va asossiz milliy siyosat, «ulug` og`a»larga xos yuzaki «millatparvarlik» bu makon xalqlarining munosabatlariga rahna sololmadi.

Qoraqalpoq va o`zbek xalqi bir necha o`n yilliklar mobaynida to`planib qolgan muammolarni hal etishda, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yanada chuqurlashtirishda o`z an`analaridan unumli foydalanish yo`lini tanladilar. Har ikki xalq taqdiri, istiqboli bir ekanligini, ularni mushtarak orzular, yagona intilish birlashtirib turganligini ochiq-oydin ko`rsatdilar. Tarixan turli davrlarda turli siyosiy o`zgarishlar va qiyinchiliklarda toblangan do`stlik va qardoshlik munosabatlari bunga asos bo`ladi.

Yuqoridan amalga oshirilgan bir yoqlama rejalashtirish, kichik xalqlarga bo`lgan e`tiborning sustligi tufayli Qoraqalpog`iston sobiq Ittifoq tarkibida taraqqiyot darajasi eng past bo`lgan o`lkaga aylandi. Ittifoq hukumatining aybi bilan qiyinchiliklar chuqurlashdi, muammolar ustiga muammolar to`plandi. Ekologik halokat yuzaga keldi. Amudaryo suvining ifloslanishi va Orol dengazining qurishi bilan bog`liq bo`lgan jiddiy muammolar paydo bo`ldi.

To`planib qolgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma`naviy taraqqiyot borasidagi muammolar tizimini hal etishda eng adolatli yo`l tanlandi: yagona zamin, yagona makonda yashab kelgan o`zbek va qoraqalpoq xalqlari o`z taqdirларini abadiy birlikda ko`rishdi. Qoraqalpoq xalqi milliy davlatchilik asoslarini qurishda hamda tom ma`nodagi siyosiy va iqtisodiy mustaqillikka o`zbek xalqi ko`magida erishdi va o`zining porloq kelajagini yaratishga kirishdi. Uning ulkan orzu-umidi bekamu ko`st amalga oshadigan bo`ldi. Qoraqalpog`iston jamoatchiligining O`zbekiston tarkibida davlat mustaqilligi va respublika maqomining huquqiy asosga ega bo`lishga intilishi Prezident Islom Karimov tomonidan qo`llab-quvvatlandi.

1990 yil 14 dekabrda Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashining IV sessiyasida «O'zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat suvereniteti to'g'risida Deklaratsiya» qabul qilindi. Mazkur Deklaratsiya 1991 yil 31 avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunda o'zining huquqiy asosini topdi. Unda Qoraqalpog'istonning hududiy yaxlitligi va mustaqilligi e'tirof etildi. Har ikki respublika o'rtasidagi siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida (70-75-moddalar) o'z aksini topdi. Natijada ikki tomonlama hurmat asosida qoraqalpoq xalqining o'z taqdirini o'zi belgilash, mustaqil taraqqiyot hamda milliy davlatchilikni mustahkamlashdagi roli oshdi. Kelajakka qat'iy ishonch bilan qaraydigan, olis istiqbolni yaratishning kafolatini beradigan huquqiy maqomga ega bo'ldi³⁷.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilanganidek, Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tomonidan himoya qilinadi (70-modda).

Konstitutsiyaning 21-moddasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarosi ayni paytda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi. Bu qoraqalpoq xalqiga O'zbekiston xalqlarining barcha huquqlaridan foydalanish imkonini beradi. Ularning haq-huquqlari va erkinliklarini kafolatlaydi. Qoraqalpog'iston Respublikasi taraqqiyoti uchun qator huquqiy imkoniyatlar yaratildi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy vakilligi mavjud. O'zbekiston Konstitutsiyasining 82-moddasida mustahkamlab qo'yilganidek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputati va Oliy Majlis Raisi o'rinbosarlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati rahbari lavozimi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiradi. 107-moddaga binoan esa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi

³⁷ **Қарағи:** Жўраев Н. Ўзбекистон тарихи. Учунчи китоб. Т., Шарқ. 2011. 116 бет

tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasining xuddi shunday sud organlarining rahbarlari kiradi. Sud hujjatlari o'zbek tili bilan birga qoraqalpoq tilida ham olib boriladi (115-modda).

Konstitutsiyaning 71-moddasida belgilab qo'yilganidek, Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z Konstitutsiyasiga ega bo'lmog'i kerak. Ana shu huquqiy asosga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashi o'zining XII sessiyasida 1993 yil 9 aprelda Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi³⁸. Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga hech qanday mone'lik qilmaydi, aksincha, uni bosh huquqiy asos sifatida biladi va Qoraqalpog'iston hududida to'la amal qilishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari Qoraqalpog'istonning butun hududida majburiy ekanligi e'tirof etilgan. Qoraqalpoq milliy davlatchiligi o'z taraqqiyoti tarixida birinchi marta ana shunday insonparvar, adolatli, demokratik imtiyozlarga ega bo'ldi. Ayni paytda u suveren respublikaning barcha davlat ramzlariga ega. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 14 dekabrda bo'lib o'tgan XI sessiyasida Qoraqalpog'iston Davlat bayrog'i, 1993 yil 9 aprelda bo'lib o'tgan XII sessiyasida Davlat tamg'asi, 1993 yil 4 dekabrda bo'lib o'tgan XIV sessiyasida Davlat madhiyasi tasdiqlandi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan 1994 yil 25 dekabrda Oliy Kengashning 75 deputatdan iborat yangi tarkibi muqobillik asosida saylandi. Respublika parlamenti Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deb ataldi. Jo'qorg'i Kengesning 1995 yil 11 yanvarda Nukus shaxrida bo'lib o'tgan birinchi chaqiriq birinchi sessiyasida Jo'qorg'i Kenges Raisi, uning o'rinbosarlari, mandat komissiyasi, 8 ta qo'mita raislari va uning a'zolari saylandi. Ayni paytda deputatlar qo'mitalar raislari rahbarligida respublika qonunchilik tizimini yaratishda faol ishtirok etmoqdalar.

Xususan, demokratik jamiyat qurish, erkin bozor munosabatlarini shakllantirishga mo'ljallangan muhim qonun va qarorlar qabul qilindi. Jo'qorg'i Kenges Raisi qoshida doimiy harakatdagi Kengash tashkil qilingan bo'lib, uning

³⁸ Қорақалпоғистон Республикаси Конституцияси. Нөкис. Қарақалпақстан. 2012

tarkibiga Jo`qorg`i Kenges Raisi, rais o`rinbosarlari, Vazirlar Kengashi raisi, mandat komissiyasi va qo`mitalar raislari kiradi³⁹.

Qoraqalpog`iston Respublikasi ijroiya hokimiyat organi Vazirlar Kengashi hisoblanadi. Uning tarkibiga rais, ikkita birinchi o`rinbosar va 4 ta tarmoq o`rinbosarlari kiradi. Shuningdek, ijroiya hokimiyat tarkibiga vazirliklar va qator tarmoq qo`mitalari rahbarlari ham kiradi. Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Toshkent shahrida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida o`zining ish olib boruvchi doimiy vakiliga ega.

Qoraqalpog`iston Respublikasida faoliyat ko`rsatayotgan qator jamoat tashkilotlari bu erda demokratik jarayonlarning tobora qaror topayotganidan dalolat beradi. Ayni paytda respublika hududida hukumatga qarashli bo`lmagan qator tashkilotlar, jumladan, «Orol va Amudaryoni himoya qilish uyushmasi», «Ekosan», «Aralsos», «Sog`lom avlod uchun» singari bir qator xalqaro tashkilotlarning bo`limlari ish olib bormoqda.

Ayni vaqtda shuni ta`kidlash joizki, istiqlol yillarida Qoraqalpog`istonda qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyatining zamonaviy tizimini vujudga keltirildi.

Prezident I.A.Karimov «Har bir boshqaruv tizimi, har bir rahbar organ, avvalo o`z tasarrufida belgilangan, topshirilgan ishlar bilan shug`ullanishini ta`minlash zarur», -deb qayd qildi.

O`zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ko`p millatli Qoraqalpog`iston xalqining, ana shu mo``tabar yurt kishilarining ham munosib hissasi bor.

O`zbekiston hukumati Qoraqalpog`iston Respublikasini har tomonlama qo`llab-quvvatlamoqda. O`zbekiston Davlat byudjetidan Qoraqalpog`istonni rivojlantirish uchun 20 milliard so`m mablag` ajratildi. Bu Qoraqalpog`iston milliy daromadining 55 foizini tashkil qiladi.

Qoraqalpog`istonga berilayotgan moliyaviy yordam miqdori ham o`sib bormoqda. Bugungi kunda O`zbekiston markaziy byudjetidan Qoraqalpog`istonga berilayotgan subventsiya, ya`ni moliyaviy yordam miqdori 9 milliarddan oshiq

³⁹ Жўраев Н. Ўзбекистон тарихи. Учунчи китоб. Т., Шарк. 2011. 164 бет

so'mni yoki butun Qoraqalpog'iston byudjeti harajatlarining 75 foizini tashkil etmoqda. O'zbekiston hukumatining amaliy yordami hamda qoraqalpoq xalqining fidoiy mehnati tufayli keyingi yillarda Qoraqalpog'istonda aholi turmush sharoitini yaxshilash, tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish borasida qator ijobiy natijalarga erishildi. Eng avvalo, elda tinchlik va barqarorlik mustahkamlandi. Hamjihatlik bilan yurt istiqboli yo'lida mehnat qilishga sharoit yaratildi.

Respublikada mulkchilikning yangi shakllari paydo bo'la boshladi. Ishlab chiqarish va xizmat sohasida nodavlat sektorining hissasi oshib bordi. Ayni paytda sanoat, qishloq xo'jaligi va savdoda bu ko'rsatkich 80- 90 foizni tashkil etmoqda. Respublika iqtisodiyotining boshqa yo'nalishlarida ham islohotlar izchil amalga oshirila boshlandi. Jumladan, bank tizimida ham jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Bu erda davlat banklari bilan birga tijorat va xususiy banklar ham faoliyat ko'rsatmoqda. Agrosanoat banki va sanoat-qurilish banklari ixtisoslashtirilgan hissadorlik tijorat banklariga aylantirildi. Qoraqalpog'iston tarixida birinchi marta tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil etildi.

Qoraqalpog'istonda ulgurji va birja savdosi bilan shug'ullanuvchi hissadorlik uyushmalari keng faoliyat ko'rsatmoqda. Tovar ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar va ishbiarmonlarning butun imkoniyatlarini ishga solish maqsadida ularning erkinligi va teng huquqliligini ta'minlash choralari ko'rildi.

Qoraqalpog'istonda mustaqillik mobaynida mayda ulgurji tizim, shu jumladan, savdo uylari, mayda ulgurji savdo do'konlari va omborlar, 17 ta ko'tara savdo bozor hamda O'zbekiston tovar xom ashyo birjasining Qoraqalpog'iston bo'limiga qarashli 19 ta supermarket do'konlari faoliyat ko'rsatdi. Hozirgi kungacha bo'lgan ma'lumotlarga qaraganda, xususiylashtirishdan tushgan mablag'larning umumiy hajmi 330 million so'mni tashkil etdi. Uning 20 foizi respublika ijtimoiy taraqqiyotiga ajratildi, 50 foizi esa tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar ajratishga sarflandi. Shu bilan birga Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat mulkini xususiylashtirish qo'mitasi xususiylashtirilgan korxonalar va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 13,8 million so'm kredit ajratdi.

Bozor fondining faoliyati sezilarli ravishda faollashdi, 1996 yilda respublika fond birjalari filiallarida 191,6 million soʻmlik aktsiyalar sotildi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining davlat korxonalarini aktsionerlik jamiyatlariga aylantirish, qimmatbaho qogʻozlar bozorini rivojlantirishga oid farmonlarini bajarish amalda oʻz samaralarini bera boshladi.

1991-2013 yillarda natura koʻrinishida mahsulot ishlab chiqarish ham koʻpaydi, xususan, past voltli apparaturalar, yoʻl qurilishi mashinalari ehtiyot qismlari, engal sanoat texnologik uskunalari va ularning ehtiyot qismlari, mebellar va boshqalar ana shular jumlasidandir.

Paxtadan ip ishlab chiqarish, ip gazlamalari, tayyor trikotaj buyumlar, isteʼmol mahsulotlaridan un, makaron, mineral suvlar ishlab chiqarish koʻpaydi.

Temir-beton konstruksiyalari va detallari, toshdan bezakli materiallar tayyorlash, qandolatchilik mahsulotlari, oʻsimlik yogʻi, uzum vinosi, salqin ichimliklar va osh tuzi ishlab chiqarish oʻsdi.

Sanoatda bir qator ijobiy oʻzgarishlar yuz berdi. Jumladan, 1995 yilda Xoʻjayli shahrida shisha idishlar zavodi qurilib foydalanishga topshirildi. Natijada respublikaga chetdan shisha idishlarni tashib keltirish sezilarli darajada kamaydi.

1996 yilda Koʻngʻirotdagi «Urga» gaz sanoati korxonasida gaz kondensati va tabiiy gaz qazib chiqarilishi boshlab yuborildi⁴⁰. Aholini tabiiy gaz bilan taʼminlash darajasi 83 foizga etdi. «Qoraqalpoqqurilish» aktsionerlik jamiyatida Italiya firmalarining yuqori sifatli jihozlari bilan jihozlangan, yiliga 60 ming kv. m. marmar bloklari va plitalari ishlab chiqaradigan yangi marmar tsexi ochildi. «Nukus un» zavodida esa spirt ishlab chiqaradigan yangi tsex qurildi.

engil sanoat ishlab chiqarishining bazasi kengaya bordi. 1993 yilda Nukus shahrida «Kateks» toʻqimachi-ik majmuasi, 1995 yilda Ellikqalʼa tumanida ham «Elteks» nomli xuddi shunday toʻqimachilik majmuasi foydalanishga topshirildi.

Nukus va Qoʻngʻirot un kombinatlari, Toʻrtkoʻlda 3 million shartli banka konserva mahsulotlari ishlab chiqaradigan zavod, Ellikqalʼa tumanida esa shunday quvvatga ega boʻlgan konserva tsexi foydalanishga topshirildi.

⁴⁰ Қорақалпоғистон тонги. 2014 йил, 1 май 1 май. №20 (1081)

Mamlakatimizning iqtisodiy salohiyati tobora yuksalib bormoqda. Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, zamonaviy biznes infratuzilmasini rivojlantirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizdagi makro-iqtisodiy barqarorlik va qulay sarmoyaviy muhit ta'sirida eng rivojlangan davlatlar, nufuzli moliya muassasalari mamlakatimiz bilan hamkorlik qilmoqda. Buning samarasida yangi-yangi zamonaviy korxonalar bunyod etilmoqda.

O'zbekiston uchun Koreya Respublikasi vaqt sinovidan o'tgan va har jihatdan ishonchli strategik sherikdir.

Bugungi kunda O'zbekiston-Janubiy Koreya munosabatlari davlatlararo va hukumatlararo darajada, firma va kompaniyalar doirasida o'zaro manfaatdorlik asosida rivojlanmoqda. Mamlakatlarimiz o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, madaniy-gumanitar sohalarida qaror topgan munosabatlar 2006 yilda imzolangan Strategik hamkorlik to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya ruhida izchil rivojlanib, yangi mazmun bilan boyib bormoqda. O'zaro hamkorlikda yangi-yangi ishlab chiqarish korxonalari barpo etilmoqda.

Surg'il koni negizida bunyod etilayotgan Ustyurt gaz-kimyo majmuasi O'zbekiston va Janubiy Koreya hamkorligining yuksak namunasidir. Ushbu loyihaning umumiy qiymati 3,9 milliard AQSh dollarini tashkil qiladi. Uning amalga oshirilishi yiliga 4,5 milliard kub metr tabiiy gazni qayta ishlash hisobidan 3,7 milliard kub metr gaz, 387 ming tonna polietilen, 83 ming tonna polipropilen, 102 ming tonna piroliz benzini va boshqa qimmatbaho mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi.

Prezidentimiz Islom Karimov 2014 yil, 25 aprel` kuni ushbu yirik sanoat korxonasiga tashrif buyurib, bu erda amalga oshirilayotgan qurilish ishlari bilan tanishdi.

– Bunday yirik va muhim loyihani Koreya Respublikasi bilan hamkorlikda amalga oshirayotganimiz bejiz emas, – dedi davlatimiz rahbari. – O'zbekiston Koreya Respublikasiga ulkan iqtisodiy, industrial va intellektual salohiyatga ega

rivojlangan davlat sifatida qaraydi. Mamlakatlarimiz o`rtasida qaror topgan mustahkam va o`zaro manfaatli hamkorlikni yuksak qadrlaydi.

Ustyurt gaz-kimyo majmuasi neft`-kimyo sohasida dunyodagi eng yirik loyihalardan biridir. “Project Finance International” xalqaro nashri ushbu majmuani qurish loyihasining loyihaviy moliyalash bitimini neft`-kimyo va gaz-kimyo sektoridagi 2012 yilning eng yaxshi loyihasi, deb e`tirof etgan. Shuningdek, u “Trade Finance Magazine” va “Global Trade Review” nashrlarining “2012 yilning eng yaxshi bitimi” xalqaro mukofotlariga sazovor bo`lgan.

2014 yil 13 martda yana bir nufuzli xalqaro nashr – «Infrastructure Journal» ushbu gaz-kimyo majmuasi qurilishi loyihasini «Neft`-gaz sohasidagi 2014 yilning global bitimi» nufuzli mukofoti bilan taqdirladi.

Mazkur loyiha qo`shma korxona muassislari bo`lgan Janubiy Koreyaning «Kogas», «Lotte Chemical», «STX Energy» kompaniyalari va «O`zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasining 1,4 milliard dollar hajmidagi to`g`ridan-to`g`ri investitsiyasi, shuningdek, 2,5 milliard dollardan ziyod kredit resurslari hisobidan moliyalashtirilmoqda.

Loyihani moliyalashtirishda Osiyo taraqqiyot banki, Korea Development Bank, Korea Finance Corporation (Koreya Respublikasi), China Development Bank (Xitoy), ING (Niderlandiya), Hermes, KfW, Bayern LB, Siemens Bank (Germaniya), Credit Suisse (Shveytsariya), EKN, Nordea, SEC (Shvetsiya) kabi taraqqiyot banklari hamda etakchi tijorat banklari, shuningdek, Janubiy Koreya, Germaniya va Shvetsiyaning loyihani amalga oshirishda qatnashayotgan banklarga sug`urta to`lovlarini taqdim etgan eksport-import agentliklari singari nufuzli moliya muassasalari ishtirok etayotgani ushbu loyihaning naqadar istiqbolli ekanidan dalolat beradi.

2012 yilda boshlangan qurilish ishlari bugungi kunda jadal davom etmoqda. Zamonaviy infratuzilma ob`ektlari barpo etilib, uskunalar o`rnatilmoqda.

Davlatimiz rahbari bu erda mehnat qilayotgan ishchi va mutaxassislar bilan suhbatlashdi.

Mehnatsevarlik, samimiylik, bag`rikenglik kabi fazilatlar o`zbek va koreys xalqlariga birdek xos, dedi Yurtboshimiz.

Majmua qurilishida 6 ming 400 ga yaqin kishi mehnat qilmoqda. Ularning 3 ming 500 dan ziyodi yurtimiz mutaxassislari bo`lib, aksariyati yoshlardir.

Biz mustaqilligimizning ilk yillarida kelajagi buyuk davlat qurishni o`z oldimizga maqsad qilib qo`ygan edik, dedi Prezidentimiz. Bugun zamonaviy bilimlarni puxta egallagan, mana shunday noyob zavodlarda ishlayotgan yoshlarimizga qarab quvonamiz va ana shu ezgu-niyatlarimizga erishayotganimizning amaliy ifodasini ko`ramiz.

Davlatimiz rahbari bu erda mehnat qilayotgan ishchi va mutaxassislarning yashash va mehnat sharoitlari bilan qiziqdi.

Uchrashuvda “Uz-Kor Gaz Chemical” O`zbekiston-Janubiy Koreya qo`shma korxonasi boshqaruvi raisi Li Xong Yol, “Lotte Chemical” kompaniyasi direktori, loyihaning texnik rahbari Xyun Chul Pak, “Hyundai engineering” kompaniyasi menejeri Ustyurt gaz-kimyó majmuasi qurilish maydoni rahbari Kim Van Su va boshqalar yaratilgan qulay shart-sharoit, doimiy e`tibori uchun Prezidentimizga minnatdorlik bildirdi⁴¹.

1995 yildan hozirgi kunga qadar Qo`ng`irot tumanida Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan, yiliga 190 ming tonna kal`tsiyli soda ishlab chiqaradigan zavod qurilishi boshlandi. Zavod tarkibida kimyoviy yo`l bilan ekologik toza va energiya sarflanmaydigan kaustik soda ishlab chiqarish zavodi ishlab kelmoqda.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijasida 144 ta sanoat korxonasidan 113 tasi mulkchilikning turli shakllariga o`tib ishlay boshladi. Nodavlat shakliga o`tib ishlayotgan korxonalarning rivojlanish darajasi nisbatan yuqori bo`ldi. Shuningdek, bu korxonalar iqtisodiy samaradorliga, foyda olish borasida ham sezilarli yutuqqa erishdi. Bu borada xususiý korxonalar ayniqsa pesh-qadamlik qila boshladi.

Qoraqalpog`istonda dehqon-fermer xo`jaliklari tashkil etish bo`yicha birmuncha tajriba to`plandi. Masalan, Ellikqal`a tumanida dehqonlarga er, ishlab chiqarish vositalari va etishtirilgan mahsulotlarga egalik qilish imkonini berish

⁴¹ Қорақалпоғистон тонги газетаси. 2014 йил, 1 май. №20 (1081)

maqsadida mavjud 14 ta jamoa xo`jaliklari dehqon-fermer xo`jaliklari uyushmasiga aylantirildi. Dehqonlarga meros qilib qoldirish huquqi bilan erlar uzoq muddatga ijaraga berildi. O`zbekiston hukumati ana shu tajribani ma`qullab, uni boshqa viloyatlarda ham ommalashtirishni tavsiya etishga qaratilgan maxsus qaror qabul qildi. Xo`jalik yuritishning bu yangi usuli boshqa viloyatlarda yaxshi natija berdi.

Mustaqillik yillarida O`zbekiston temir yo`llari tizimida amalga oshirilgan ishlar tahsinga sazovordir. Xususan, Yaponiya xalqaro hamkorlik banki bilan hamkorlikda uzunligi 223 kilometr bo`lgan, dengiz sathidan 1500 metr balandlikdagi dovon orqali o`tadigan, Afg`onistonning shimoliy hududlariga chiqish imkonini beradigan Toshguzar-Boysun-Qumqo`rg`on yangi temir yo`li barpo etildi. Navoiy-Uchkuduq-Sulton Uvaystog`-Nukus yo`nalishi bo`yicha Amudaryo uzra barpo etilgan temir yo`l va avtomobil` yo`llari o`tadigan ko`prikn o`z ichiga olgan yangi temir yo`l uchastkalari foydalanishga topshirildi⁴².

I.A.Karimov tashabbusi bilan Orolbo`yi xalqlariga ijtimoiy muammolarni echishda amaliy yordam berish to`g`risida qaror qabul qilindi. O`zbekiston hukumatining Orolbo`yi muammolari to`g`risidaga tashabbuslari mintaqadagi qo`shni mamlakatlardagi xalqlar tomonidan ham qo`llab-quvvatlanmoqda. Amudaryo bo`yidagi mehnatkashlar ekologik vaziyatning yaxshilanishiga, xalqaro forumlarda Orol dengizi muammosini hal qilishga doir qabul qilingan qarorlar o`z samarasini berishiga qat`iy ishonch bildirmoqdalar.

O`zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning Nukus shahrining 60 yilligi bayramida: «O`zbekiston taqdiri-bu Qoraqalpogaston taqdiridir, o`zbek xalqining taqdiri-bu qoraqalpoq xalqining kelajagidir» degan otashnafas so`zlari qoraqalpoq xalqi xotirasida abadiy saqlanib qoladi. Bugun qoraqalpoq xalqi shuni yaxshi biladiki, uning amaldagi suvereniteti, mustaqilligi faqat O`zbekiston bilan birga bo`lgandagana ta`minlanishi mumkin. Shuning uchun ham qoraqalpoq xalqi o`z taqdirini o`zbek xalqi va

⁴² Каримов И.А. Бош мақсадимиз - кенг кўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш. // «Халк сўзи» газетаси. 2013 йил, 19 январь.

O`zbekiston bilan abadiy bog`lagan. O`zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog`iston Respublikasining Konstitutsiyalari buning yorqin kafolatidir.

Xulosa

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, iqtisodiy barqarorlikka erishish, sobiq ittifoq bir-biriga bog'lab tashlagan moddiy zanjirlar uzilgach, ularning o'rnini qoplaydigan yangi imkoniyatlarni izlab topish zaruriyati tug'ildi. Eng mushkul paytlarda davlat boshqaruv tizimiga o'zgartirish kiritish, aholini ijtimoiy muhofazalash bilan birga jahon hamjamiyatiga yo'l qidirish, tajribamizda ko'rilmagan, mashaqqatli vazifalarni uddalashga kirishildi.

Mustaqillik yillari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tezkorligi, voqea va hodisalarning shiddatliligi, olamu odam taqdiriga dahldor bo'lgan dunyoviy muammolaru serqirra hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan umumiy qarashlarimizdan tortib, eng kichik, eng shaxsiy yumushlarimizgacha bo'lgan barcha hodisalarni o'zida mujassam etdi.

Istiqlol yillarida jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida tub islohotlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar iqtisodiy hayotimizni ham qamrab oldi. Respublikaning boy imkoniyatlari, geosiyosiy sharoitidan kelib chiqib, O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonidagi eng muhim vazifalaridan biri bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish masalasi dastlabki kunlarning eng muhim vazifasi sifatida belgilandi.

Mahalliy davlat hokimiyat organlarining faoliyati murakkab tuzilishga ega bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonun va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solindi. Bu organlar sud hokimiyati organlari, prokuratura, nazorat inspeksiyasi, ichki ishlar organlari, adliya singari huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorlikda ish olib borildi.

O'zbekiston mustaqilligi yillarida mahalliy hokimiyat organlari tubdan isloh qilindi. Avvalo shuni aytish kerakki, bu tizim tarkibiga viloyat, tuman, shaharcha, shaharlar tarkibidagi tuman, shahar, qishloq, posyolka doirasidagi hokimiyat muassasalari majmui kiradi.

O'zbekistonda Prezidenti saylovi, Oliy Majlis saylovi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari saylovi umumiy, teng, to'g'ridan - to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazilishi mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston o'zining davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasi mustaqil O'zbekiston tarkibidagi suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi maqomini oldi. Bu tabiiy hodisa edi. Chunki asrlar mobaynida qoraqalpoqlar bilan o'zbek xalqi o'rtasida do'stlik, qardoshlik munosabatlari qaror topgan, turmush tarzlari va dunyoqarashlarida mushtaraklik vujudga kelgan edi. Orolbo'yi kengliklarida qadimiy o'zbek va qoraqalpoq ajdodlari birgalikda yashab, mehnat qilishdi. O'zlarining taraqqiyot yo'llarini bosib o'tishdi.

Qoraqalpog'istonda dehqon-fermer xo'jaliklari tashkil etish bo'yicha birmuncha tajriba to'plandi.

Shunday qilib, mustaqillikning qiyin va mashaqqatli davrida kelajakka qat'iy ishonch bilan qaragan O'zbekiston xali keng miqyosdagi vazifalarni amalga oshirdi.

DAVLAT HOKIMIYATI





Islom Abdug'aniyevich Karimov 1938 yil 30 yanvarda Samarqand shahrida xizmatchi oilasida tug'ilgan. Millati – o'zbek. Oliy ma'lumotli. O'rta Osiyo Politexnika va Toshkent Xalq xo'jaligi institutlarini tugatgan. Muhandis-mexanik va iqtisodchi mutaxassisliklariga ega. Iqtisod fanlari nomzodi.

Oliy Majlis - umumiy ma'lumot

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi

Oliy Majlis Senati

Qonunchilik palatasi va Senatning
birgalikdagi vakolatlari

Qonunchilik palatasining mutloq
vakolatlari

Senatning mutlaq vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Oliy
Majlisiga saylovlar



Vazirlar Mahkamasi-umumiy ma'lumot

O`zbekiston Respublikasi Bosh vaziri

Vazirlar Mahkamasining shaxsiy tarkibi

Vazirlar Mahkamasining asosiy
vakolatlari

Vazirlar Mahkamasi ishini rejalashtirish

Vazirlar Mahkamasining apparati

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
markaziy tashkilotlar

Sud hokimiyati - Umumiy ma'lumot

**O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyaviy sudi**

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi

**O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik
sudi**

**O'zbekiston Respublikasi Harbiy
sudlari**

**O'zbekiston Respublikasining Bosh
prokuraturasi**

O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun va ijro hokimiyati, siyosiy partiya, boshqa jamoat birlashmalaridan qat'iy nazar faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida sudlarning faoliyati "Sudlar to'g'risida"(14.12.2000 yildagi yangi tahriri)gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasida:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi
- O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi
- O'zbekiston Respublikasining Oliy xo'jalik sudi
- fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasining oliy sudlari
- fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahrining sudlari
- fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman(shahar) sudlari,
- jinoyat ishlari bo'yicha tuman(shahar) sudlari,
- Qoraqalpog'iston Respublikasining xo'jalik sudi,
- viloyatlar va Toshkent shahrining xo'jalik sudlari,
- harbiy sudlar.



O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi (bundan buyon matnda Markaziy saylov komissiyasi deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi referendumini tashkil etish va o'tkazish uchun tuziladi hamda o'z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradi.

Komissiyaning vazifalari va huquqiy maqomi «O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida»gi, «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi referendumini to'g'risida»gi qonunlarda va boshqa qonunlarda belgilab qo'yilgan.



O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va but-unligicha bajarilishini nazorat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori prokuratura organlarining yagona, markazlashgan tizimini boshqaradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining prokurori O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasining oliy vakolatli organi tomonidan tayinlanadi.

Viloyat, tuman va shahar prokurorlari O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori tomonidan tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasining prokurori, viloyat, tuman va shahar prokurorlarining vakolat muddati besh yil.

O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi organlari davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslarning kim bo'lishidan qat'iy nazar o'z vakolatlarini bajarish davomida faqat qonunga bo'ysunadilar.

Davlat boshqaruvi organlari

Vazirliklar

Davlat qo'mitalari

Davlat inspektсийasilari

Agentliklar

Qo'mitalar

Markazlar

Markaziy muassasalar

Xo`jalik boshqaruvi organlari

Assotsiatsiya va kontsernlar

Banklar

Kompaniyalar

Birlashmalar

Fondlar

Boshqalar

Mahalliy davlat hokimiyati organlari



Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

Andijon viloyati hokimiyati

Buxoro viloyati hokimiyati

Jizzax viloyati hokimiyati

Qashqadaryo viloyati hokimiyati

Navoiy viloyati hokimiyati

Namangan viloyati hokimiyati

Samarqand viloyati hokimiyati

Surxondaryo viloyati hokimiyati

Sirdaryo viloyati hokimiyati

Toshkent viloyati hokimiyati

Farg'ona viloyati hokimiyati

Xorazm viloyati hokimiyati

Toshkent shahar hokimiyati

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T., «O'zbekiston». 2012.
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi. Nəkis. Qaraqalpaqstan. 2012
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T., «O'zbekiston», 2011.
4. Karimov I.A. «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqoralik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari». –T., «O'zbekiston» 2002.
5. Karimov I. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz. 9-jild. –T., «O'zbekiston», 2001. 286 bet
6. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. -T., «O'zbekiston», 2000. 8 jild.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T., «O'zbekiston», 1999.
8. Karimov I.A. Biz kelajagimiz o'z qo'limiz bilan quramiz. -T., «O'zbekiston», 1999. 6 jild.
9. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T., «O'zbekiston», 1998.
10. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997.
11. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. 1992
12. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. -T., «O'zbekiston», 1996. 1 jild.
13. Karimov I.A. O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. - T.: O'zbekiston, 1993.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil, 27 yanvardagi PQ-1694-sonli «O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

xuzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashini tashkil etish to'g'risida»gi qarori.

15. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. // «Xalk so'zi» gazetasi. 2013 yil, 19 yanvar`.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi» mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. - T.: «O'qituvchi» NMIU, 2012.

17. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qoshida «O'zbekistonning yangi tarixi» Jamoatchilik kengashi fondi materiallari

18. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam. - T.: «O'zbekiston», 2011.

19. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2010. 13 noyabr`. 220. (5135)

20. «O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida»gi Qonun, 1992 yil 4 yanvarda

21. O'zbekiston Respublikasi «Toshkent shahar hokimini saylash tartibi to'g'risida» muvaqqat Nizomni tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengash Riyosatining Qarori, 1991 yil 25 noyabr`.

22. «O'zbekiston Respublikasi Ijroiya hokimiyati - boshqarma idoralarini tuzilishini takomillashtirish to'g'risida»gi Qonun, 1990 yil 3 noyabr`.

23. «O`zbekiston Respublikasi xalq deputatlarining maqomi to`g`risida»gi Qonun, 1990 yil 31 oktyabr`.
24. «O`zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to`g`risida»gi Qonun, 1991 yil 31 avgust.
25. Xalq so`zi gazetasi. 2014 yil, 6-may. №87 (6017)
26. Xalq so`zi gazetasi. 1994 yil, 24 sentyabr`. // 1994 yil 22 sentyabrda bo`lib o`tgan XVI sessiyada «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to`g`risida»gi qonun.
27. Xalq so`zi gazetasi. 1993 yil, 30 dekabr` // 1993 yil 28 dekabrda bo`lib o`tgan Respublika Oliy Kengashining XIV sessiyasida «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to`g`risida»gi qonun
28. Xalq so`zi gazetasi. 1993 yil, 4 sentyabr`. // 1993-yil 2-sentabrda «Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida»gi qonun
29. Qoraqalpog`iston tongi gazetasi. 2014 yil, 1 may. №20 (1081)
30. G`oyibnazarov Sh. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish yo`li. T. O`zbekiston. 2011.
31. N.Jo`raev., O`zbekiston tarixi (Milliy istiqlol davri). 3-kitob. «Sharq», 2011
32. Qudratxo`jaev Sh.T. O`zbekistonda professional parlament tizimining siyosiy institut sifatida shakllanishi va rivojlanishi istiqbollari. T.: Sharq NMAK, 2007.
33. Axmedov E. O`zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. - T.:Abu Ali ibn Sino nashr., 2002.
34. Azizxo`jaev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. T., 2001.
35. Normativ huquqiy hujjatlar to`g`risida. // O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2001, №1-2.
36. O`zbekistonning yangi tarixi. Mustaqil O`zbekiston tarixi. 3-kitob. -T., «Sharq», 2000
37. Azizxo`jaev A. Davlatchilik va ma`naviyat. T.: Sharq, 1997.

38. Jumaev R. Davlat va jamiyat: demokratlashtirish yo`lida. T., 1998
39. Inson huquqlari: Umuminsoniy va milliy birlik: (Xalqaro shartnoma va O`zbekiston Respublikasi Qonuni). T.1. T.: Sharq, 1996.
40. Bobojonova D.B. O`zbekistonda demografik jarayonlar va ularning xususiyati. - T.,1995.
41. Inson huquqlari. Inson huquqlari to`g`risida Bill`. T.: Adolat, 1992.
42. Aminova R.X. Aktual`nie problemi sotsial`nogo razvitiya v Uzbekistane v usloviyax perestroyki. - T.: Fan, 1991.
43. Abrorov M. Yangicha fikrlash va milliy urf-odatlar. T.: Fan, 1990.
44. Jumabaev R. Davlat va jamiyat: demokratlashtirish yo`lida. T., Sharq.

7 bet

Internet materiallari:

1. <http://www.parliament.gov.uz>
2. <http://www.senat.gov.uz>
3. <http://www.gov.uz>
4. <http://www.google.ru>
5. <http://www.google.uz>
6. <http://www.rambler.ru>
7. <http://www.ziyonet.uz>
8. <http://www.kitob.uz>
9. <http://www.fikr.uz>
10. <http://www.arxiv.uz>
11. <http://www.tasix.uz>